

ISBN 978-9943-28-608-5



9 789943 286085

663/50/
K 25



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI
2015-YILDA IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA
MO'ljALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN
VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN
MAJLISIDAGI MA'RUZASIGA CHET EL
IJTIMOIIY-SIYOSIY DOIRALAR VAKILLARI
VA XORIJIY EKSPERTLARNING MUNOSABAT
VA FIKR-MULOHAZALARI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI
2015-YILDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA
MO'LJALLANGAN IQTISODIIY DASTURNING ENG
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN
VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN
MAJLISIDAGI MA'RUZASIGA CHET EL
IJTIMOIIY-SIYOSIIY DOIRALAR VAKILLARI
VA XORIJIY EKSPERTLARNING MUNOSABAT
VA FIKR-MULOHAZALARI**



1079

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2016



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI
2015-YILDA IJTIMOY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA
MO'LJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN
VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN
MAJLISIDAGI MA'RUZASIGA CHET EL
IJTIMOIY-SIYOSIY DOIRALAR VAKILLARI
VA XORIJIY EKSPERTLARNING MUNOSABAT
VA FIKR-MULOHAZALARI**



1079

TOSHKENT — «O'ZBEKISTON» — 2016

UO'K:323(575.1)


KBK 66.3(5'Y)

K 25


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2016-yil 15-yanvardagi mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi jahon hamjamiyatining katta qiziqish va e'tiborini tortdi.

Mazkur kitobdan ushbu ma'ruza matni, shuningdek, chet el ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillari va xorijiy ekspert va mutaxassislarning munosabat va fikr-mulohazalari o'rin olgan.

ISBN 978-9943-28-616-0



© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016



**BOSH MAQSADIMIZ – IQTISODIYOTIMIZDA OLIB
BORAYOTGAN ISLOHOTLARNI VA TARKIBIY
O'ZGARISHLARNI KESKIN CHUQURLASHTIRISH,
XUSUSIY MULKCHILIK, KICHIK BIZNES VA
TADBIRKORLIKKA KENG YO'L OCHIB BERISHDIR**

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY
107 EAST 57TH STREET
CHICAGO, ILL. 60637
TEL. 773-936-5000



Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masala – O'zbekistonning o'tgan 2015-yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va 2016-yil uchun taraqqiyot yo'limizning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishdan iborat.

O'tgan 2015-yil bizning bosh maqsadimiz bo'lmish asosiy vazifa – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin egallash bo'yicha, avvalo, muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.

Bu borada gap, avvalo, har tomonlama puxta o'ylangan, uzoqni ko'zlaydigan keng ko'lamli Dasturni hayotga joriy etish haqida bormoqda. Ushbu Dastur mohiyat e'tibori bilan chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, eng muhimi, Konstitutsiyamizda ko'zda tutilganidek, xususiy mulkning qonuniy, me'yoriy-huquqiy va amaliy jihatdan ustuvor rolini ta'minlash, O'zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Ta'kidlash joizki, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida faqat uglevodorod xomashyosi, qimmatbaho va rangli metallar, uran xomashyosini qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalarni, shuningdek, tabiiy monopoliyalarning strategik infratuzilma tarmoqlarini – temir va avtomobil yo'llari, aviatashuvlar, elektr energiya ishlab chiqarish, elektr va

kommunal tarmoqlarini to'g'ridan to'g'ri davlat boshqaruvida saqlab qolish maqsadga muvofiq, deb topildi.

Davlat aktivlarini xususiylashtirish, avvalo, chet ellik investorlarga sotish vazifalari qo'yildi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratildi. Masalan, 506 ta mulk kompleksi tanlov asosida, investitsiya kiritish sharti bilan «nol» qiymatida yangi mulkdorlarga sotildi. Bu borada ana shu investorlar qariyb 1 trillion so'm va 40 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish, shuningdek, 22 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish majburiyatini olganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, 245 ta kam rentabelli va faoliyat ko'rsatmayotgan tashkilot to'liq tugatildi.

Xususiylashtirish dasturida ko'zda tutilgan, foydalanilmayotgan va qurilishi tugallanmagan 353 ta davlat mulki obyekti buzilib, buning natijasida 120 gektar hajmidagi yer maydoni bo'shadi. Bu yerlarning qariyb 80 gektari ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish va xizmatlar ko'rsatish obyektlari qurish uchun tadbirkorlar tasarrufiga berildi.

Davlat mulki shaklidagi yana 319 ta ana shunday obyekt inventarizatsiya qilinib, xususiy mulk shakliga o'tkazish uchun savdoga qo'yildi va o'tgan yili ularning 102 tasi yangi mulkdorlarga sotildi. Bundan tashqari, 378 ta aksiyadorlik jamiyatining davlat ulushi baholandi va chet ellik strategik investorlarga sotish uchun ochiq savdoga qo'yildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, izchil rivojlanayotgan va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan «Navoiyazot», «Farg'onaazot», «Urganch ekskavator», «Qizilqumsement», «Jizzax akkumulator zavodi» aksiyadorlik jamiyatlari kabi korxonalar, «Aloqabank», «Turonbank» singari banklar, «O'zagrosug'urta» kompaniyasi va boshqa muassasalardagi davlatga tegishli aksiyalar ham savdoga qo'yildi.

Shu tariqa 52 ta aksiyadorlik jamiyatidagi savdoga qo'yilgan davlat ulushi xususiy mulkdorlarga sotildi. Jumla-

dan, «Qo'qon yog'-moy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining davlatga tegishli aksiyalari 2 million 500 ming dollarga sotildi.

Bularning barchasi mamlakatimizda mulkchilik shaklini tubdan o'zgartirish bo'yicha olib borilayotgan keng miqyosdagi ishlarning faqat boshlanishidir.

Mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlar va qonunchilik hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari va ma'muriy tuzilmalarning tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvini bartaraf etish uchun qat'iy tartib o'rnatish va ana shu idoralarning rahbarlari hamda mansabdor shaxslarining javobgarligini oshirish bo'yicha katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarda tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etildi. Tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va ularning faoliyat yuritishini yengillashtirish bilan bog'liq 40 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, yangi tartib bo'yicha, agar shaxs soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va huquqbuzarlik aniqlanganidan so'ng 30 kun ichida davlatga yetkazilgan zararni to'liq qoplasa, unga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi va u javobgarlikka tortilmaydi.

Xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyati kafolatlarini kuchaytirish masalasini hal etishda **sud organlari rolini oshirishga** alohida ahamiyat berilmoqda. Sudlar tegishli da'vo arizasi ko'rib chiqilayotgan paytda tadbirkorlik subyekti nazorat organining qaroridan norozi bo'lsa, uning ijrosini to'xtatib turish huquqiga ega bo'ldi.

Agar tadbirkorlik subyekti soliq va bojxona qonunchiligini buzgan bo'lsa, uning mulki faqat sud qaroriga binoan musodara

qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.

Endi mikrofimalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik subyektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bu borada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlarni amalga oshirish muddati 30 kalendar kunidan 10 kalendar kuniga qadar qisqartirildi. Shuni qayd etish kerakki, bu normalar xususiy bank va moliya institutlariga ham tegishlidir.

Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish o'tkazish, davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini buzish holatlari uchun ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Bunday choralar xo'jalik subyektlari faoliyatini va ularning bank hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarini noqonuniy to'xtatish, ularning hisob raqamlarida mablag' borligi to'g'risidagi ma'lumotni asossiz talab qilish, tadbirkorlarni mablag' ajratish bilan bog'liq xayriya ishlari va boshqa tadbirlarga majburiy jalb qilish kabi holatlar uchun ham taalluqlidir.

Shu bilan birga, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarining noqonuniy qarorlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qilingan harakat yoki harakatsizlik oqibatida tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararni, jumladan, boy berilgan daromadni to'liq hajmda qoplash mexanizmi qonuniy asosda joriy etildi.

Nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati

erkinligini himoya qilishga oid qonunchilikni bir necha marta buzgan taqdirda, ularga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bu borada tegishli normalar kiritildi.

Hisobot yilida «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasining qo'ng'iroqlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yagona markazi va Bosh prokuraturaning «Ishonch telefoni» bazasida fuqarolarning murojaatlarini kecha-yu kunduz qabul qilish bo'yicha yangi tizim joriy etildi.

Bu tizim davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlar, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va mulkdorlar huquqlarining buzilishi haqidagi ariza va shikoyatlarni qabul qiladi. Ana shu tizim joriy etilganidan buyon o'tgan yarim yil davomida prokuratura organlariga 1 ming 500 dan ziyod tadbirkor murojaat qilgan. Eng muhimi, barcha murojaatlarning qariyb uchdan bir qismi tadbirkorlar foydasiga hal etilgan.

Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015-yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013–2014-yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda.

Shu yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu

qilinishi mumkinligini belgilaydigan qonun normasi joriy etildi, da'vo arizasini ko'rib chiqish muddatlari ham sezilarli ravishda qisqartirildi.

Endi mikrofirmalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyati to'rt yilda bir marta, boshqa xo'jalik subyektlari faoliyati esa uch yilda bir marta rejali tartibda tekshiriladi va bunday tekshiruvlar faqat Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Bu borada moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlarni amalga oshirish muddati 30 kalendar kunidan 10 kalendar kuniga qadar qisqartirildi. Shuni qayd etish kerakki, bu normalar xususiy bank va moliya institutlariga ham tegishlidir.

Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish o'tkazish, davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini buzish holatlari uchun ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Bunday choralar xo'jalik subyektlari faoliyatini va ularning bank hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarini noqonuniy to'xtatish, ularning hisob raqamlarida mablag' borligi to'g'risidagi ma'lumotni asossiz talab qilish, tadbirkorlarni mablag' ajratish bilan bog'liq xayriya ishlari va boshqa tadbirlarga majburiy jalb qilish kabi holatlar uchun ham taalluqlidir.

Shu bilan birga, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarining noqonuniy qarorlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qilingan harakat yoki harakatsizlik oqibatida tadbirkorlik subyektiga yetkazilgan zararni, jumladan, boy berilgan daromadni to'liq hajmda qoplash mexanizmi qonuniy asosda joriy etildi.

Nazorat, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati

erkinligini himoya qilishga oid qonunchilikni bir necha marta buzgan taqdirda, ularga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga bu borada tegishli normalar kiritildi.

Hisobot yilida «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasining qo'ng'iroqlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yagona markazi va Bosh prokuraturaning «Ishonch telefoni» bazasida fuqarolarning murojaatlarini kecha-yu kunduz qabul qilish bo'yicha yangi tizim joriy etildi.

Bu tizim davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlar, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va mulkdorlar huquqlarining buzilishi haqidagi ariza va shikoyatlarni qabul qiladi. Ana shu tizim joriy etilganidan buyon o'tgan yarim yil davomida prokuratura organlariga 1 ming 500 dan ziyod tadbirkor murojaat qilgan. Eng muhimi, barcha murojaatlarning qariyb uchdan bir qismi tadbirkorlar foydasiga hal etilgan.

Davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015-yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subyekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013–2014-yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda.

Shu yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili asosida Davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyat boshladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi bo'yicha mutlaqo yangi mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, ushbu

tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Aziz do'stlar!

Shuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes subyektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band

jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

2015-yilda korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirishimiz uning haqiqiy bozor xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minlash va konservativ qarashlardan xalos bo'lishida katta hissa bo'ldi.

Barcha aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, natijada 462 ta jamiyatni yoki ularning 43 foizini tugatish yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavozim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi.

Ana shu klassifikator asosida rahbarlar tarkibi attestatsiyadan o'tkazildi. Rahbar kadrlarning korporativ boshqaruvning zamonaviy usul va prinsiplari, menejment va marketing bo'yicha bilimlarini baholash ushbu sinovning asosiy maqsadi qilib qo'yildi. Uning natijalariga ko'ra, attestatsiya qilingan 721 nafar rahbar xodimning yarmi – 49 foizi attestatsiyadan o'tgan bo'lsa, ularning har uchinchisi attestatsiyadan shartli ravishda o'tkazilgan, 20 foizi yoki har beshinchi rahbar esa egallab turgan lavozimiga loyiq emas, deb topilgan.

Bu raqamlar, tabiiyki, ko'p narsadan darak beradi va aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini tubdan

tarmoqlar ishini yuritadigan tashkilotlarning hududiy korxonalariga texnik shartlarni olishdan tortib muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni amalga oshirib, ularni tadbirkorlarga tayyor holda topshirish vakolatlari berildi.

Aziz do'stlar!

Shuni ham ta'kidlashimiz zarurki, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes subyektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'ringan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon bankining ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000-yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga yetgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band

jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

2015-yilda korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirishimiz uning haqiqiy bozor xususiyatlariga ega bo'lishini ta'minlash va konservativ qarashlardan xalos bo'lishida katta hissa bo'ldi.

Barcha aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati to'liq inventarizatsiyadan o'tkazildi, natijada 462 ta jamiyatni yoki ularning 43 foizini tugatish yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

Korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining yangi namunaviy tuzilmasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Shu tariqa, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi talablarini inobatga olgan holda, Lavoziim va kasblarning yangi klassifikatori ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unga bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan 566 ta yangi toifa kiritildi.

Ana shu klassifikator asosida rahbarlar tarkibi attestatsiyadan o'tkazildi. Rahbar kadrlarning korporativ boshqaruvning zamonaviy usul va prinsiplari, menejment va marketing bo'yicha bilimlarini baholash ushbu sinovning asosiy maqsadi qilib qo'yildi. Uning natijalariga ko'ra, attestatsiya qilingan 721 nafar rahbar xodimning yarmi – 49 foizi attestatsiyadan o'tgan bo'lsa, ularning har uchinchisi attestatsiyadan shartli ravishda o'tkazilgan, 20 foizi yoki har beshinchi rahbar esa egallab turgan lavozimiga loyiq emas, deb topilgan.

Bu raqamlar, tabiiyki, ko'p narsadan darak beradi va aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimini tubdan

o'zgartirishdek muhim ishni o'z vaqtida boshlaganimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Bo'shab qolgan rahbarlik lavozimlariga puxta bilimga ega bo'lgan, zamonaviy menejment va marketing usullarini amalda qo'llay oladigan yosh mutaxassislar tayinlandi. Shu borada Germaniyada joylashgan Yevropa menejment va texnologiyalar maktabining faol ishtirokida aksiyadorlik jamiyatlarining rahbar xodim va mutaxassislarini tizimli asosda tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish, ularning zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini egallashini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi tashkil etildi.

O'tgan yili Germaniya va iqtisodiy jihatdan rivojlangan boshqa davlatlardagi yetakchi ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini keng jalb qilgan holda, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va yirik korxonalarining 160 nafardan ortiq rahbar xodimi korporativ boshqaruv sohasida malaka oshirdi, ularning yarmi Germaniya korxonalarida tajriba o'rttirdi.

Aksiyadorlik jamiyatlari haqida gapirganda, bugungi kunda biz ularning faoliyatidan qoniqish hosil qilyapmiz, deb bo'lmaydi. Yurtimizda aksiyalarning ikkilamchi bozori talab darajasida shakllanmagan. Holbuki, jahon miqyosida, butun dunyoda aksiyadorlik jamiyatlari orqali ishni boshqarish eng ishonchli va samarali usul deb hisoblanadi. Lekin mamlakatimizda bunday jamiyatlar yuzaki faoliyat olib borayotganini ochiq aytishimiz kerak. Shunday ekan, tegishli rahbarlar, avvalo, Vazirlar Mahkamasi bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishi shart. Aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari zamon talablari asosida ish olib borishga qodir bo'lishi kerak.

Bugun bunday rahbarlardan, siz qachondan beri direktor bo'lib ishlayapsiz, tajriba o'rttirish uchun dunyoning qaysi mamlakatlariga bordingiz, kimning tajribasini o'rgandingiz, deb so'rash vaqti keldi. Aytinglar, hozirgi vaqtda Germaniya.

Yaponiya yoki Koreya bo'ladimi, iqtisodiy rivojlangan boshqa davlatlar bo'ladimi, ularga borib ish o'rganishga kim to'sqinlik qilmoqda? Bilib qo'yinglar, agar taraqqiy topgan davlatlarda qo'llanayotgan boshqaruv usullarini o'zimizda joriy etmasak, shunchaki rasmiy ish yuritadigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotiga nomigagina o'tgan bo'lamiz va bunday holat qoloqlikka sabab bo'ladi. Xalqimizda «Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq» degan maqol bor. Bu juda topib aytilgan. Shu hikmatga amal qilsak, hech qachon yutqazmaymiz.

Hurmatli do'stlar!

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi. Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'iroq soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi.

Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamoqchiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valuta hisobiga olib kelinar edi. Ayni vaqtda mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi.

Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovatt quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Hozircha bu loyiha sinovdan o'tkazilmoqda. 2020-yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavatt quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda.

Samarqand – Qarshi temir yo‘l uchastkasida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» elektr poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bu Toshkent – Qarshi yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchi tashish sifati va sur‘atini oshirish imkonini bermoqda. Natijada poytaxtimizdan Qashqadaryo viloyatiga va Qarshidan Toshkentga yo‘lovchilar tashish vaqti ikki barobar qisqardi.

Mamlakatimiz **qishloq xo‘jaligida** ham chuqur tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o‘tgan yili mo‘l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g‘alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi.

Ta‘kidlash kerakki, bunday mo‘l hosil, asosan, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g‘o‘za va boshqoli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o‘zlashtirish evaziga ta‘minlandi.

Mamlakatimizda bug‘doydan gektaridan o‘rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 60–77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug‘idir.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur‘atlarda rivojlandi. O‘tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi.

Qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tgan yili qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig‘imga ega bo‘lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi.

Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

Ochig'ini aytganda, ana shu yutuqlarni hammamiz ko'rib, kuzatib turamiz, lekin bunga qanday erishilayotgani, ularning zahirida qanday omillar mujassam ekani haqida kamdan kam o'ylaymiz. Masalan, o'tgan yili sobiq ittifoq respublikalarining ko'pchiligida shu masala bo'yicha ahvol tang bo'lganini yaxshi bilamiz. Lekin O'zbekistonda narx-navo me'yorida saqlandi. Bunga nimaning hisobidan erishyapmiz?

E'tibor berib qarasangiz, O'zbekistonga chetdan meva-cheva olib kelinayotgani yo'q! Kartoshkani ham o'zimiz yetishtiryapmiz. Xalqimizda «Och odam musiqani qorni bilan eshitadi» degan maqol bor. Bunday maqollarni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Nega deganda, ular odamlarimizning asrlar davomida o'z hayoti, tajribasi asosida, og'ir sinovlardan o'tib chiqargan xulosasidir.

Yurtimizdagi bugungi to'kinchilik, farovonlik dehqonlarimizning fidokorona mehnati, o'z vaqtida fermerlik harakatiga keng yo'l ochib berganimiz natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bir so'z bilan aytganda, bugun mehnatni o'zimiz qilyapmiz, uning mevasini, rohatini ham o'zimiz ko'ryapmiz. Shu yo'lda nimaiki qilayotgan bo'lsak, buning hosilini xalqimiz, qariyalarimiz, bolalarimiz kelgusida yana ko'proq ko'radi. Mehnatkash insonlar, avvalambor, qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan mard va matonatli yurtdoshlarimizning olijanob mehnati evaziga har yili mana shunday yuqori natijalarga erishmoqdamiz.

Fursatdan foydalanib, bugun, mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga yana bir bor chin qalbidan samimiy minnatdorlik izhor etishni o'zimning burchim deb bilaman.

O'tgan yili iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida **xizmat ko'rsatish va servis** sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom ettirildi.

2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rni va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2010-yildagi 49 foizdan 54,5 foizga yetdi. Jami band aholining yarmidan ko'pi ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Bank, sug'urta, lizing, konsalting va boshqa turdagi bozor xizmatlari barqaror sur'atlar bilan rivojlanmoqda, ular xususiyl sektor va kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasida 80 ming 400 ta kichik biznes subyekti faoliyat yuritmoqda va bu xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari umumiy sonining 80 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Qishloq va tumanlarimizda xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada jadal rivojlantirish dasturi doirasida so'nggi uch yilda 22 ming 800 dan ortiq loyiha amalga oshirildi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi 1,6 barobar, qishloqda bir kishiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi 1,5 barobar oshdi.

Shu o'rinda, bir fikrni aytishni o'rinli deb bilaman.

Bugungi kunda hayot tobora shiddat bilan o'zgarib boryapti. Dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqealar barchangizga

yaxshi ma'lum. Bizning mana shunday barqaror sur'atlar bilan o'sib rivojlanayotganimiz, hayotimiz kundan kunga yaxshi bo'lib borayotgani avvalo amaliy ishlarimizda o'zining ifodasini topishi kerak.

Buning uchun rahbar o'z o'rnida oqilona ish yuritishi, uzoqni ko'ra olishi, o'ziga har doim talabchan bo'lishini hayotning o'zi eng o'tkir zarurat sifatida talab qilmoqda.

Bugun mustaqillik yillarida tug'ilib, voyaga yetgan yangi avlod hayotga qadam qo'ymoqda. Hozir 24 yoshga kirgan yigit-qizlarimizda bilim ham, kuch-g'ayrat ham bor. Faqat bitta narsa – tajriba yetishmaydi. Agar ular shuni ham tezroq egallab olsa, katta maqsad yo'lida izlanib, oldinga harakat qilsa, bemaolol bizning o'rnimizni egallashga, ezgu ishlarimizni davom ettirishga qurbi yetadi.

Biz o'zimizga, o'z kuchimiz va salohiyatimizga ishonmasak, bilib qo'yinglar, hech kim chetdan kelib bizga yordam bermaydi. Aksincha, yordam o'rniga bular nima uchun bunday tez sur'atlar bilan o'sib boryapti, deb hasad bilan qaraydi, xolos.

2015-yilda erishgan yutuqlarimiz haqida gapirganda, xalqimizning ishga, mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgarayotganini, yoshlarimizning hayotga dadil kirib kelayotganini eng katta natijamiz deb ta'kidlashni istardim.

Aziz do'stlar!

Endi yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Bugun 2015-yilning yakunlariga bag'ishlangan ushbu ma'ruza ana shu davrda erishgan marralar va raqamlar haqidagi ma'lumotlar bilan emas, avvalo, ayni o'tgan yilda hayotga keng ko'lamda tatbiq etilgan islohotlarimiz va katta ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlarga oid fikrlar bilan boshlangani bejiz emas, albatta.

Buning boisi shundaki, agar ana shu amaliy ishlarimizni hal qiluvchi islohot va yangiliklardan boshlamasak, o'z-

o'zidan ayonki, biz kutayotgan barqaror o'sish sur'atlari bilan rivojlanishni qo'lga kiritishni aslo tasavvur etib bo'lmaydi.

Bu haqiqatni hammamiz yaxshi anglab olishimiz darkor.

Erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va ularni joriy etish borasida 2015-yilda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning **barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini** ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, hisobot yilida yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik budjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi.

Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014–2015-yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016–2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlari bo'yicha **dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani** albatta, barchamizga mamnuniyat yetkazadi.

Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha **Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida e'tirof etildi.**

O'tgan yili bank tizimini yanada mustahkamlash, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish va investitsiyaviy faolligini kengaytirish ta'minlandi. Bank tizimining jami kapitali 2014-yilga nisbatan 23,3 foiz ko'payib, 7 trillion

800 milliard so'mga yetdi. So'nggi 5 yilda mazkur ko'rsatkich 2,4 barobar o'sdi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi qariyb 24 foizni tashkil qildi. Bu umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 marta, bank likvidligi esa eng yuqori ko'rsatkichlardan 2 marta ko'pdir.

Jahon miqyosida savdo-sotiq ishlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada sustlashgani, eksport qilinadigan eng muhim tovarlarga nisbatan tashqi talabning kamayishi va narxlarning pasayishiga qaramasdan, biz tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldoga erishdik. Bu esa **davlatimizning oltin-valuta zaxirasini oshirish imkonini berdi.**

Davlat qarzi darajasining pastligi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan 18,5 foizdan oshmagani ham mamlakatimizda erishilgan ijobiy natijalar va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

O'ta og'ir va murakkab vaziyatda qo'lga kiritilgan bunday yutuq va marralar, avvalo, chuqur va atroflicha o'ylangan siyosatning natijasi bo'lib, ularning zahirida mehnatkash, mard va matonatli xalqimizning qahramonona mehnati mujassam ekanini ko'ramiz.

Hurmatli yurtdoshlarim!

Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan – **aholi bandligini ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi.**

2015-yilda mamlakatimizda 980 mingdan ortiq ish o'rni tashkil qilingan bo'lsa, shuning 60 foizdan ziyodi qishloq joylarda yaratildi.

Kollejlarning 480 mingdan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Tijorat banklari tomonidan ularga o'z biznesini tashkil qilish uchun 280 milliard so'mga yaqin imtiyozli kreditlar ajratildi va bu 2014-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir.

2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz **aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun** mustahkam asos yaratdi.

Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi.

Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta'kidlashni istardim.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz yetarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni «detsil koeffitsiyenti» deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010-yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015-yilda 7,7 foizni tashkil etdi.

Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir xalqaro ko'rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010-yildagi 0,390 o'rniga 2015-yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir.

Aytish kerak – boshqalar havas qiladigan bunday natijalarga erishish, albatta, oson emas. Bu yo'lda bir yillik yoki besh yillik davr ham kamlik qiladi. Bunday maqsadlarga erishish uchun so'zda emas, amaliy harakatlarimiz bilan kundalik hayotimizni o'zgartirishimiz kerak.

Aholi daromadlarining ortishi natijasida ichki iste'mol talabi kengaymoqda. Chakana savdo aylanmasi bir yilda 15 foizdan ziyod, pullik xizmatlar hajmi esa 10,8 foizga o'sdi.

Aholining uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanish darajasida ham sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Bugungi kunda ushbu tovarlarning aksariyati mamlakatimizda ishlab chiqarilmoqda. Xususan, har 100 oilaning 42 tasi yengil avtomobillarga ega bo'lib, bu besh yil avvalgi ko'rsatkichdan 1,5 barobar ko'p, 47 ta oila shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan va bu davrda o'sish 3,9 barobarni tashkil etdi. Shuningdek, har 100 ta oiladan 31 tasi konditsionerga ega yoki bu boradagi o'sish 1,7 barobarga teng, har 100 ta oilaga 234 ta mobil telefon to'g'ri kelmoqda yoki bu sohadagi o'sish 1,6 barobarni tashkil etmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligida mustaqil tashkilotlar guruhi va xalqaro ekspertlar ishtirokida 2015-yilda 158 ta davlatda «Dunyoning eng baxtli mamlakatlari» degan mavzuda tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifoda etadigan ushbu indeks bo'yicha O'zbekiston 44-o'rinni egalladi. Aytish joizki, yurtimiz 2013-yilda bu reytingda 60-o'rinda edi.

O'tgan yili **ta'lim-tarbiya sohasini** yanada isloh etish va takomillashtirish masalasi ham diqqat markazimizda bo'ldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10–12 foizni tashkil etmoqda. Bu UNESCOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalardan, ya'ni 6–7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir.

2015-yilda bu sohada 384 ta obyektning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qiymati 423 milliard so'mlik ishlar amalga oshirildi, namu-naviy loyihalar asosida 29 ta yangi umumta'lim maktabi

barpo etildi, 219 ta maktab rekonstruksiya qilinishi, 136 tasi kapital ta'mirlandi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2 ming 200 talabaga mo'ljallangan yangi zamonaviy o'quv korpusi, sport majmuasi, shuningdek, o'quv jarayoniga jalb etilgan xorijlik mutaxassislar uchun mehmonxona barpo etildi. Navoiy davlat konchilik institutida yangi o'quv binosi qurilishi nihoyasiga yetkazildi.

Oliy ta'lim sohasida oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilarini muntazam qayta tayyorlash bo'yicha mutlaqo yangi, takomillashtirilgan tizim joriy qilindi. 15 ta tayanch oliy o'quv yurtida oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. Mazkur kurslarda oliy o'quv yurtlarining 2 ming 700 ga yaqin o'qituvchisi malaka oshirdi.

Biz uchun bebaho boylik bo'lgan xalqimizning sog'lig'ini saqlash maqsadida 2015-yilda 141 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun qariyb 500 milliard so'm mablag' sarflandi.

Respublika bolalar suyak-sil kasalliklari sanatoriysi, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali, Andijon va Buxoro shaharlaridagi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, Qarshi va Samarqand shaharlarida viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, shuningdek, mamlakatimizning ko'plab tumanlarida tibbiyot birlashmalari rekonstruksiya qilinishi, foydalanishga topshirildi. Qishloq vrachlik punktlarini optimallashtirish va zamonaviy diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida keyingi besh yilda mamlakatimizda har 100 mingta chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishganini alohida ta'kidlashni istardim.

Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlashning muhim va samarali omili bo'lgan **jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga** ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2015-yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bolalar sporti inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha manzilli dasturni amalga oshirish doirasida umumiy qiymati 225 milliard so'mdan ortiq 35 ta namunaviy sport obyekti, 12 ta suzish havzasi, 174 ta maktab sport zallari foydalanishga topshirildi.

2015-yilda O'zbekiston sportchilari jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro turnirlarda 860 dan ortiq medalni qo'lga kiritishga erishdilar. Shuning 311 tasi oltin, 274 tasi kumush va 276 tasi bronza medallaridir. Sportchilarimiz, ayniqsa, yengil atletika, badiiy gimnastika, boks, kurash, dzyudo, taekvondo, ot sporti bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etishmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz sportchilari shu yil Braziliyada bo'ladigan yozgi olimpiya o'yinlarida ishtirok etish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda. Ana shu nufuzli xalqaro musobaqalarda yurtimiz sportchilari hech kimdan kam bo'lmasdan ishtirok etadi, deb barchamiz ishonch bildiramiz.

O'tgan yil davomida **«Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturini to'liq amalga oshirish** masalasi ham diqqatimiz markazida bo'ldi.

Nuroniya otaxon va onaxonlarimizga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni yanada kuchaytirish maqsadida ushbu dasturni amalga oshirishga vazirlik va idoralar, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlariga tegishli korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, birinchi navbatda, «Nuroniya» va «Mahalla» jamg'armalari keng jalb etildi.

O'tgan yili 215 mingdan ziyod muhtaram faxriylarimiz bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ehtiyojmand nogironlarga

11 mingdan ortiq yuqori sifatli protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari bepul topshirildi. 70 mingga yaqin keksa avlod vakillari to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va statsionar hamda sanatoriy-kurort muassasalarida o'z sog'lig'ini tikladi. 100 yoshga to'lgan nuronilarning pensiyasiga eng kam oylik ish haqi miqdorida ustamalar qo'shib berildi.

Bundan tashqari, o'tgan yilning 1-sentabridan boshlab o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksa va nogironlarni har oyda bepul ta'minlash uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena tovarlarining yangi ro'yxati joriy qilindi.

Bu haqda, albatta, uzoq gapirish mumkin, lekin, muxtasar qilib aytganda, «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun barcha manbalar hisobidan 2 trillion 246 milliard so'm va 225 million dollardan ziyod mablag' sarflanganining o'zi, o'ylaymanki, bu boradagi ishlarimizning miqyosi va ko'lamidan yaqqol dalolat beradi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Mamlakatimizning 2016-yilga belgilab olingan marra va maqsadlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishda jahon miqyosidagi hali-beri davom etayotgan global inqiroz bilan bog'liq yuzaga kelayotgan jiddiy muammolarni hisobga olmasligimiz mumkin emas, albatta.

Ana shu muammolar tufayli bugungi kunda dunyo bozorlarida talabning keskin kamayib, noaniqlik saqlanib qolayotgani, shafqatsiz raqobatning tobora kuchayib borayotgani, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi jahondagi ko'pchilik davlatlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Bunday o'ta murakkab vaziyat barchamizdan ertangi kunimizni ko'rishda, istiqbolimizni belgilab olishda, avvalo,

eskicha qarashlar qolipidan voz kechishni, umrini o'tab bo'lgan, aytish mumkin, inersion usullardan to'liq voz kechishni talab etadi.

Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur.

Ayni shunday yangicha qarash va harakatlar butun faoliyatimizning negizini tashkil etishi shart.

Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3–4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'nomohiyati shundan iboratki, u **birinchi bosqichda** xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, **keyingi bosqichda** sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, **uchinchi, yakuniy bosqichda** esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Bu boradagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda har bir turdagi birlamchi xomashyo, ya'ni yarim fabrikatlarni chuqur qayta ishlashdan tortib, uni iste'mol uchun tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yakuniy bosqichga qadar butun ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish zarurati paydo bo'lmoqda.

Muxtasar aytganda, ishlab chiqarishni tashkil etishning butun jarayonini – xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yo'lini – siklini, sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va nechog'liq o'zini qoplashini asoslab bergan holda, prognoz qilishni ta'minlash darkor.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida 2030-yilda, yangi turdagi tovarlar tayyorlashni o'zlashtirish asosida neft-gaz-kimyo sohasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,2 barobar, rangli metall mahsulotlari 2,2 marta, qora metallardan tayyorlanadigan buyumlar 2,3 karra, kimyo sanoati mahsulotlari, jumladan, mineral o'g'itlar 3,2 barobar ko'payishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilda 5,6 marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi.

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Tashqi bozorlarda xaridorgir, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan zamonaviy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va yangi bosqichga ko'tarish tayyor mahsulotlar eksportining barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishishda, hech shubhasiz, katta zamin tug'diradi.

Shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo'lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030-yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.

Ayni shu ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ya'ni, jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan,

o'zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, biz oldimizga aniq maqsadni – ya'ni, 2030-yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor.

Bu yo'lda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisobidan sanoatni jadal rivojlantirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2015-yildagi 33,5 foizdan 40 foizga yetkazish, qishloq xo'jaligi ulushini esa 16,6 foizdan 8–10 foizga kamaytirish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish evaziga yalpi ichki mahsulot uchun energiya sarfini taxminan 2 barobar qisqartirishga erishmog'imiz kerak.

Biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalar qanchalik asosli ekanini quyidagi hisob-kitoblar ko'rsatib turibdi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016–2030-yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11 yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi.

Bu raqamlar har tomonlama chuqur o'ylangan iqtisodiy siyosatimizning natijasi, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Ayni paytda biz kelajak rejalarimizni puxta ishlab chiqishimiz, dunyo bozorida bugun yuz berayotgan og'ir o'zgarishlar sharoitida kelajakni, farzandlarimizning munosib hayot kechirishini bugundan o'ylashimiz kerak. Shu borada oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish masalasi har qanday vaziyatda ham eng muhim vazifamiz bo'lib qolaveradi. Bir so'z bilan aytganda, kelgusi avlodlarimizning ko'ziga ochiq qarash, ular oldida yuzimiz yorug' bo'lishi uchun bor bilim va imkoniyatlarimizni, kuch-g'ayratimizni safarbar qilishimiz zarur. Toki farzandlarimiz, nabiralarimiz bundan 15–20 yil oldin barqaror taraqqiyot poydevorini

yaratib ketgan ota-bobolariga, barchamizga rahmatlar aytib, bizdan minnatdor bo'lib yashasin.

Aziz yurtdoshlarim!

Mamlakatimizni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish borasida boshlangan tizimli islohotlarni, iqtisodiyotimizda, avvalambor, sanoat va qishloq xo'jaligida tub tarkibiy o'zgarishlarni so'zsiz davom ettirish, xususiy mulk, tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish va bu soha vakillari manfaatlarini himoya qilish, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur.

Joriy yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini sanoatda 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflyatsiya darajasini 5,5–6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2016-yil uchun belgilangan, umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihasini belgilangan muddatlarda so'zsiz ishga tushirishni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish lozim.

Birinchi navbatda, Toshkent – Samarqand – Buxoro tezyurar temiryo'l qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida har biri 450

megavatt quvvatga ega bo'lgan ikkita bug'-gaz turbinasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida 150 megavatt quvvatga ega bo'lgan energiya bloki, Muborak gazni qayta ishlash zavodida 6 milliard kub metr gaz ishlab chiqaradigan uchta oltingugurt tozalash bloki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 70 ming tonna mis eritish quvvatiga ega bo'lgan yangi pech qurilishini tugallash ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, Jizzax viloyatidagi sement zavodining quvvatini 1 million tonnagacha portlandsement ishlab chiqarish darajasida kengaytirish, «Jeneral motors – O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida yangi «Aveo» (T-250) yengil avtomobili ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

2016-yilda qishloq joylarda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ziyod hajmdagi 13 mingta uy-joy barpo etish, uzunligi 900 kilometr ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari, 325 kilometr yo'l qurish mo'ljallanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, 2016-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar qiymatidagi investitsiyalar yo'naltirish, ularning o'sish sur'atini 109,3 foizga yetkazish belgilangan. Ana shu investitsiyalarning 4 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil qiladi, bu 2015-yilga nisbatan 20,8 foiz ko'pdir.

Bu nimaning tasdig'i, nimaning isboti?

Men bu holatni chet mamlakatlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga katta ishonchi, deb aytmoqchiman. Agar shunday mustahkam ishonch bo'lmasa, xalqaro maydonda keskin o'zgarishlar kuchaygan, dunyo iqtisodiyotida, jahon bozorida mavhumlik tobora ortib borayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda qaysi xorijlik sarmoyador o'zining mablag'ini mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirgan bo'lardi?

Shu borada muhim bir masalaga e'tiboringizni alohida jalb etmoqchiman. Ya'ni, ilgari tushimizda ham ko'rmaydigan investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarini iqtisodiyotimiz

taraqqiyotiga jalb etar ekanmiz, biz avvalo, shular hisobidan xorijdan olib keladigan texnika va texnologiyalar zamon talabiga javob beradigan eng yuqori darajada bo'lishi shart.

O'tgan yili shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Yangidan qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ishlab chiqarish quvvatlari loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini, texnika va texnologiyalarni ekspert baholash agentligi tashkil etildi. Barcha buyurtmachilarning mazkur talablarga so'zsiz rioya etishi, birinchi navbatda, ushbu agentlikdan qat'iy talab qilinadi.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasining maxsus komissiyasi tomonidan yengil va to'qimachilik sanoati korxonalarida ushbu masala o'rganib chiqilganida, qator jiddiy kamchiliklar borligi aniqlandi. Bunday tekshiruvlarni davom ettirish kerak.

Shu bilan birga, eskirgan, talabga javob bermaydigan asbob-uskunalarni olib kelish va ishga tushirish yuzasidan buyurtmachilarning javobgarligini kuchaytirish bo'yicha Ma'muriy javobgarlik kodeksiga va Jinoyat kodeksiga aniq moddalar kiritish zarur.

2015–2019-yillarda muhandislik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlarini so'zsiz bajarish bo'yicha boshlangan ishlarni 2016-yilda ham davom ettirish eng muhim vazifamizdir.

Bu borada O'zbekiston milliy avtomagistralini modernizatsiya qilish ishlarini yakuniga yetkazish masalasi diqqatimiz markazida bo'lishi zarur. Buning uchun joriy yilda qariyb 513 kilometr avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish lozim.

Temir yo'l transporti sohasida temir yo'llar tarmog'ini yanada rivojlantirish, Samarqand – Buxoro temiryo'l uchastkasining elektrlashtirilishini ta'minlash, Qarshi–Termiz uchastkasini elektrlashtirish ishlarini davom ettirish

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, shunday hajmdagi yetishtiriladigan paxta hosili, bir tomondan, xomashyoni o'zimizda chuqur qayta ishlashni inobatga oladigan bo'lsak, avvalo, to'qimachilik va yengil sanoatning ana shu xomashyoga bo'lgan ehtiyojini nafaqat to'la ta'minlaydi, balki O'zbekistonning jahon bozoriga paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlar yetkazib beradigan mamlakat sifatidagi mustahkam mavqeini saqlab qolish imkonini ham beradi.

Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug'oriladigan yer paxtadan bo'shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo'yicha paxta hosildorligi gektaridan o'rtacha 26,1 sentnerni tashkil etib turgan bir paytda hosildorligi 12–15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo'shatishga e'tibor qaratiladi. Asosan sho'rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo'lgan tog'oldi yerlariga g'o'za ekilmaydi.

Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo'lsa, so'nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo'lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda dunyo bozorlarida katta-katta davlatlarning manfaati birinchi o'ringa qo'yilyapti. Aynan ular turli «o'yin»larni o'ylab topyapti. Narx-navoni sun'iy ravishda ushlab turish, strategik jihatdan muhim xomashyo va mahsulotlarni to'plab-to'plab, narxi osmonga ko'tarilganida savdoga olib chiqish va shuning hisobidan boshqa davlatlar iqtisodiyotiga zarar yetkazish holatlari hali-beri davom etyapti. Ayrim katta davlatlar o'zini shunday tutadiki, ularga qolsa, kichkina davlatlar ularning oldida faqat «yest» deb turishi kerak. «Yest» degani bu o'zbekchada «bajaramiz, qoyil qilamiz» degani. Bu borada xalqimizning «Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning bolasi gapirsin» degan maqolini esga olsak,

ko'p narsa ayon bo'ladi. Lekin faqat katta davlatlar o'zining hukmini o'tkazadigan bo'lsa, qolganlar «xo'p bo'ladi», «yest qilamiz» deb yashaydigan bo'lsa, adolat qayoqda qoladi?

Bir vaqtlar bizda ham itoatgo'y odamlar, rahbarlar ko'p bo'lgan. Ular sobiq Markazdan qanday topshiriq berilsa, u to'g'rimi yoki noto'g'rimi, bajarishga imkoniyati bormi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, «yest qilamiz», «bajaramiz» deb yuravergan. Bu ertangi kun haqida o'ylamaydigan, kaltabin odamlarning fikri edi.

Men nima demoqchiman? Bizga nisbatan endi bunday «o'yin»lar ketmaydi. Bunday «o'yin»lar ularning o'zidan beri kelmasin. Bugun bu masalada bizning o'zimizni himoya qilishga imkoniyatlarimiz yetadi. Agar xalqimiz bir tan-u bir jon bo'lib yashasa, maydonga chiqsa, o'zingiz ayting, bizni yengadigan kuch bormi?

O'zbekiston xalqaro maydonda hamisha teng va o'zaro manfaatli aloqalar tarafdori bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mana, qudratli davlatlar o'zaro kelishib, boshqalardan fikr ham so'ramasdan, «katta yettilik», «katta yigirmalik» degan uyushmalarni tuzib olgan.

Aslida, xalq, odamzod hamma joyda bir xil. Uning ehtiyojlari, orzu-intilishlari bir xil. Qanday davlat bo'lishidan qat'i nazar, u bunday uyushmalarga a'zo bo'ladimi yoki a'zo bo'lmaydimi, bundan qat'i nazar, dunyodagi hech bir xalqning boshqasidan qandaydir ustunligi yo'q va bo'lishi mumkin ham emas.

Shunday ekan, faqat o'z manfaatini o'ylab, boshqa mamlakatlarga zug'um o'tkazish hech bir me'yorga, birinchi navbatda BMT Ustavi qoidalariga to'g'ri kelmaydi. Bizning istagimiz, qarashimiz shuki, yer yuzidagi hamma insonlar, xalqlar, davlatlar barobar bo'lib, tenglik asosida yashashi kerak.

G'o'za ekiladigan maydonlarni qisqartirish haqidagi fikrga qaytadigan bo'lsak, paxtadan bo'shagan ekin maydonlarida,

hal qiluvchi yo'nalishga aylanadi. Qamchiq dovoni orqali o'tadigan 19 kilometrlik tunnel qurilishini yakuniga yetkazish va Angren – Pop yo'nalishi bo'yicha temir yo'l qatnovini yo'lga qo'yish, hech shubhasiz, joriy yilning muhim voqeasi bo'ladi. Bu yo'lning ishga tushirilishi Farg'ona vodiysi viloyatlari va mamlakatimizning boshqa hududlari o'rtasida temiryo'l orqali yuk va yo'lovchi tashish imkonini yaratadi.

Shu munosabat bilan yana va yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: bu qurilish biz uchun nafaqat strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyiha, ayni vaqtda u kommunikatsiya va transport sohasida erishgan yuksak taraqqiyotimiz darajasini yaqqol namoyon etadi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yo'nalishidir.

Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xo'jalik yuritishning fermerlik tizimiga o'tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho'rlangan bir vaziyatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo'yicha keskin farq qilishi bilan bog'liq.

Turli mintaqalarda tashkil qilingan fermer xo'jaliklarining to'plagan rivojlanish tajribasi, samaradorligi va rentabelligini hisobga olgan holda, ularni oqilona va qulay miqdordagi yer uchastkalari bilan ta'minlash uchun qattiq ish olib borishga to'g'ri keldi.

Shu borada yer maydonlari hajmini aniqlashda subyektiv yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik va bunday holatlarning oldini olishda ana shu o'ta muhim ishni amalga oshirish mas'uliyati deputatlar korpusi, Fermerlar kengashi va jamoatchilik zimmasiga yuklatilgani hal qiluvchi omil bo'ldi.

Yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xo'jaligi va 250 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi. Toshkent, Jizzax, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida eng ko'p fermer xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va yer uchastkalari taqdim etish masalalarini ko'rib chiqish komissiyasi xulosasi bo'yicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda.

Avvalambor, shu muhim tadbirda ishtirok etgan insonlarga rahmat aytmoqchiman. Joylarda bu masalada vijdonli, halol odamlar ishlayapti. Ular eng quyi pog'onada turib, kim nomiga fermer, kim amalda yer bilan tillashib, peshona terini to'kib mehnat qilayotganini, ya'ni haqiqiy ahvolni yaxshi biladi.

Shu munosabat bilan yer uchastkalari taqdim etish masalalarini ko'rib chiqish komissiyasining rolini yanada kuchaytirish, ular faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni mustahkamlash zarurligini ta'kidlab aytmoqchiman.

Yana bir o'ta dolzarb va uzoqni ko'zlagan masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Bu o'rinda 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so'z bormoqda.

avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog'-moy olinadigan va boshqa o'simliklar ekiladi, bog' va uzumzorlar barpo etiladi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 martaga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Ayni paytda ana shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmi sezilarli darajada ortishini ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi.

2016-yilda ijtimoiy sohaga Davlat budjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat budjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Joriy yilda 13 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqand davlat universitetlari, Farg'ona politexnika institutidagi qurilish va rekonstruksiya ishlariga 355 milliard so'm ajratish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, Toshkent davlat stomatologiya instituti binolari, Toshkent shahridagi Inha universiteti va Singapur menejmentni

rivojlantirish instituti filiallarining yangi o'quv korpuslari quriladi.

Aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 2016-yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni yaratiladi. 2016-yilda oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashimiz darkor.

Yoshlarimiz, farzandlarimizning, ayniqsa, qishloq joylarda bandlik muammosi biz uchun eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolayotganini nazarda tutgan holda, tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlariga bu boradagi ishlar uchun ular shaxsan javobgar ekanini yana bir bor ta'kidlashni o'rinli, deb bilaman.

Har yili kasb-hunar kollejlari va litseylarga qabul rejasini ishlab chiqishda 3–4 yildan so'ng tuman, shahar va viloyatlar hududida qanday yangi obyektlar ishga tushirilishi, ularda mehnat qilish uchun qaysi mutaxassisliklar bo'yicha qanday kadrlar kerakligini har tomonlama hisobga olish va shu asosda qabul rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish g'oyat muhim masala ekanini eslatib o'tmoqchiman.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Aynan ana shu sohalarida hali foydalanilmagan ulkan imkoniyat va salohiyat ko'p. Eksportga mahsulot chiqaradigan sanoat korxonalaridan farqli ravishda kichik biznes subyektlari va fermerlar o'z mahsulotlarini eksport qilishdan olgan valuta tushumlarining 50 foizini banklarga sotish majburiyatidan ozod

qilingani va ularning eksportga mahsulot yetkazib berishdan, avvalo, o'zlarining manfaatdor bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor.

Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalar uchun taqdim etilayotgan imtiyozlar tizimini yana bir marta tanqidiy ko'rib chiqish, bojxona tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, ularni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish va tashqi savdo operatsiyalarini bajarish uchun tariflarni pasaytirishga doir qo'shimcha choralar ko'rish lozim. Mahsulot eksporti bilan bog'liq barcha hujjatlar va ruxsat berish tartib-taomillarini rasmiylashtirishning elektron shaklini keng joriy etish kerak.

Bu masalalarni hal etishda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining qayta tashkil etilgan tuzilmalari zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklanadi.

Bugungi kunda ana shu tuzilmalar eksportni muvofiq-lashtirish va eksport faoliyatiga yangi ishtirokchilarni jalb qilish, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yetkazib berish ko'lamini kengaytirish va yangi bozorlarga kirib borish uchun mas'uldir.

2013-yili O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida tashkil etilgan Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur jamg'arma tadbirkorlik subyektlariga tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatadigan noyob tuzilmadir.

Joriy yilda jamg'arma ustav kapitalini kamida ikki barobar ko'paytirish hisobidan uning moliyaviy imkoniyatlarini, vakolatlari, vazifa va ko'rsatayotgan moliyaviy xizmatlari ro'yxatini kengaytirish, mamlakatimiz mintaqalarida jamg'armaning tarkibiy bo'limlarini tashkil qilish masalasini ko'rib chiqish zarur, deb hisoblayman.

Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi, katta hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashligimiz zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2020-yilda bu ko'rsatkich 9 foizdan oshadi.

Masalan, Koreya Respublikasining yalpi ichki mahsulotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ulushi 11,8 foizdan ziyodni, Shvetsiyada 7 foizni, Amerika Qo'shma Shtatlarida esa 6,8 foizni tashkil etadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotimizning mazkur tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganiga qaramasdan, hozirgi vaqtda biz bu borada dastlabki bosqichda turganimizni tan olishimiz darkor. Ya'ni, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining atigi 2 foizga yaqini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bugungi kunda Janubiy Koreyaning Inha universiteti kabi xorijiy bilim maskanlarida va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlanayotganini inobatga oladigan bo'lsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish uchun barcha zarur resurs va imkoniyatlarga ega ekanimiz ayon bo'ladi.

Aziz do'stlar, barchangizga yaxshi ma'lum, biz yangi yil arafasida 2016-yilga yurtimizda Sog'lom ona va bola yili, deb nom berishga qaror qildik. Xalqimizning asriy an'analaridan kelib chiqqan holda, biz faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola tug'ilishiga, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'lishiga qat'iy ishonamiz.

Bu borada qabul qilinadigan davlat dasturida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash, perinatal va skrining markazlar, patronaj xizmatlarning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini shakllantirish va mustahkamlash, yosh onalar va bolalarni parvarish qilish darajasi va sifatini oshirish, oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, qiz bolalarni jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan etib tarbiyalash, ularning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim olishi, sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu Dasturga muvofiq ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

Aziz farzandlarimiz, mehribon onalarning, muxtasar aytganda, butun xalqimizning jismoniy sog'lomligi va ma'naviy kamolotini yanada mustahkamlash, hech shubhasiz, bizning mana shunday o'ta muhim vazifalarni qay darajada amalga oshirishimizga bevosita bog'liq bo'lib, barchamiz bu ezgu ishda o'zimizni ayamasdan, faol qatnashamiz, deb ishonaman.

Qadrli yurtdoshlar!

O'tgan 2015-yilda amalga oshirgan keng ko'lamli ishlarimiz, erishgan yutuqlarimizda millati va dinidan qat'i

nazar, mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning munosib hissasi bor va tabiiyki, ana shu muvaffaqiyatlar bilan har birimiz faxrlanishga, g'ururlanishga haqlimiz.

Biz ozod va obod Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 25 yilligi keng nishonlanadigan 2016-yilga katta maqsad va rejalar bilan qadam qo'ydik. Yangi tariximizning eng yorqin sahifasini tashkil etadigan ana shu buyuk sanaga har tomonlama munosib va salmoqli hissa qo'shish O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun ulkan sharaftir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Albatta, 2016-yil biz uchun oson bo'lmaydi, ammo, ishonchim komil – ko'pni ko'rgan xalqimizning fidokorona mehnati, azm-u shijoati bilan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yangi yilimiz 2015-yildan ziyoda bo'ladi, aslo kam bo'lmaydi. Bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

Bugungi majlisimizda muhokama qilingan, 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, qat'iyat bilan harakat qilishimiz kerak.

Shuni ham ochiq aytishimiz kerakki, oramizda o'z faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan yoki turli muammolarni yechishda zaiflik qilayotgan rahbarlar ham bor. Ularning yutuqlariga ham, kamchiliklariga ham tanqidiy ko'z bilan qarab, xolisona baho berish zarur.

Nega deganda, bugungi majlisimizda ertangi kunimiz, kelajagimizga doir masalalar bo'yicha muhokama ketyapti. Muhokama degani nima o'zi? Muhokama – bu bahs degani.

Agarki bizning har birimiz muayyan bir tarmoq yoki hududni boshqaradigan bo'lsak, hamma masala va muammolar ana shu muhokamalarda bugun ayon bo'lishi, ya'ni, kim e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshiryapti, kim bizni orqaga tortib, o'z vazifasini bajarishda kamchilikka yo'l qo'ymoqda – bularning barchasini mana shunday bahslar davomida aniqlab, bir xulosaga kelishimiz kerak.

Kamchilikka yo'l qo'yayotgan rahbarlar faoliyatida ikkita holat bunga sabab bo'lishi mumkin. Birinchidan, aytaylik, ularning o'zida tashabbuskorlikning yo'qligi, mas'uliyati yetishmagani bo'lsa, ikkinchidan, obyektiv holatlar bunga sabab bo'lishi mumkin.

Mana, yurtimizning har qaysi viloyatini oladigan bo'lsangiz, ko'pchiligida kamida ikki milliondan ortiqroq, ba'zilarida uch milliondan ziyod aholi bor.

Shu ma'noda, hokimlarga qarata aytmoqchiman. Sizlar butun boshli ana shunday el-yurt nomidan bu zalda o'tiribsiz, ularning vakili va rahbarlari sifatida bu majlisda ishtirok etyapsiz. Shuning uchun qaysi masala bo'lmasin, ularni hal qilish haqida gapirganda, avvalo ayni shu nuqtayi nazardan qarab, mas'uliyatni nihoyatda chuqur sezishingiz kerak.

Mamlakatimizda shakllangan davlat boshqaruv tizimini barchangiz yaxshi bilasiz. Bugungi kunda Prezident, Konstitutsiyaga muvofiq, qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi hokimiyat tarmog'ining rahbari emas. Bugun Prezident barcha davlat hokimiyati tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan davlat boshlig'i ekani Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Huquqiy nuqtayi nazardan qaraganda, bizda avvalambor qonun chiqaruvchi hokimiyat bor. Ya'ni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, joylarda xalq deputatlari mahalliy kengashlari ushbu hokimiyat tizimida faoliyat ko'rsatadi. Yana bir mustaqil hokimiyat tarmog'i – bu ijro etuvchi hokimiyat va uchinchisi, sud hokimiyati tizimidir. Mana shu uchta tizim bizning mamlakatimizda davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asosda bo'linishini ta'minlab, demokratik boshqaruv tizimini tashkil qiladi. Lekin, yurtimizda qaysi tizimda yoki sohada bo'lishidan qat'i nazar, amalga oshirilayotgan barcha-barcha islohotlar uchun birinchi navbatda kim javob beradi? Albatta, davlat rahbari sifatida bularning hammasiga Prezident

javobgar. Shaxsan men shunday o'ylayman, o'zimning burchim va vazifamni ayni shunda deb bilaman.

Qonunchiligimizga shu borada kiritilgan so'nggi o'zgarishlarni hammangiz yaxshi bilasiz. Bugungi majlisda ko'ri-
layotgan masalalarning naqadar mas'uliyatli ekanini hisobga olgan holda, men asosiy ma'ruza bilan chiqishni o'z zim-
manga oldim.

Agar shu nuqtayi nazardan qarab, bugun hisobot beradigan bo'lsam, nafaqat iqtisodiyot haqida, balki sud-huquq tizimi to'g'risida ham, qonunchilik faoliyati haqida ham, tashqi siyosat, umuman, diplomatik masalalar, milliy armiyamizning kuch-qudratini oshirish, yon-atrofimizda sodir bo'layotgan turli-tuman voqealar va ularga bizning munosabatimiz haqida gapirishim kerak.

Lekin bugun biz faqat iqtisodiyot haqida, uni rivojlantirish masalalari haqida so'z yurityapmiz. Nega deganda, bizning bugungi va ertangi hayot-mamotimizni hal qiladigan soha qaysi? Iqtisodiyot emasmi? Iqtisodiyot rivojlangan joyda hamma narsa bo'lishi mumkin. Ammo iqtisodiyot chatoq bo'lsa, arzingizni kimga borib aytasiz? Aybni kimdan qidirasiz? Dunyoda unday bo'lyapti, bunday bo'lyapti deb, aybni chetdan qidirish bilan ish bitadimi? Hozir ko'pchilik shunday yo'lga o'tib olgan.

Mana, bugun o'zingiz ma'ruzani eshitdingiz, men bir og'iz dunyodagi vaziyat bizga xalaqit beryapti, deb aytdimmi? Holbuki, jahon miqyosidagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshqalarga qanday ta'sir qilgan bo'lsa, bizga ham shunday ta'sir qilyapti. Faqat farqi shuki, kimdir inqiroz oqibatlarini oldindan ko'rib, shunga yarasha kerakli chora-tadbirlarni belgilagan, kimdir esa neftning narxi yuqori ekaniga ishonib yashagan.

O'zbekistonda faqat xomashyo, faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib kun ko'rish emas, balki yuqori texnologiyalarga asoslangan, zamonaviy sanoat tarmoqlarini

barpo etish va rivojlantirish vazifasi ustuvor maqsad qilib qo'yilgani va bu yo'ldagi amaliy ishlarimiz o'zining samarasini berayotgani bugungi murakkab va og'ir sharoitda bizga nihoyatda qo'l kelmoqda.

Mana, Qoraqalpog'istonda ishga tushirilgan ikkita yirik ishlab chiqarish obyektni oladigan bo'lsak, birinchisi–Surg'il koni negizida barpo etilgan gaz-kimyo majmuasi 4 milliard dollardan ziyod mablag' hisobidan qurildi. Ikkinchisi – Qo'ng'iro't soda zavodi bo'lib, yaqinda uning quvvatini ikki marta ko'paytirdik. Shularning hammasini hisob-kitob qilganda, Qoraqalpog'iston mamlakatimizning eng jadal rivojlanayotgan hududiga aylanmoqda, desam, o'ylaymanki, to'g'ri bo'ladi.

Biz 2016-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,8 foizga o'sishini belgilab oldik va Oliy Majlis deputatlari buni tasdiqladi. Endi deputatlarimiz ana shu natijaga amaliy tomondan erishish haqida o'ylashi, ya'ni, bu masalani nazoratga olishi kerak.

Agar ana shunday yuqori o'sishga biz nimaning hisobidan erishamiz, deb so'rasa, men quyidagilarni aytgan bo'lardim.

Masalan, bugungi ma'ruzada qayd etilgan yirik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirishning o'zi bizga iqtisodiy o'sish bo'yicha belgilab olgan rejalarimizni 50 foizga bajarish imkonini beradi. Shuning uchun biz quruvchilarimizni, injener-texnik xodimlar faoliyatini birinchi navbatda qo'llab-quvvatlashimiz kerak.

Barchamiz yaxshi bilamizki, yaqin va uzoq yon-atrofimizda – bu siyosiy yoki iqtisodiy ahvol bo'ladimi – vaziyat tobora keskinlashib bormoqda. Sizlarga ochiq aytmoqchiman, jahondagi xalqaro ahvol shunday bo'lyaptiki, nafaqat har qaysi davlat ehtiyotkorlik bilan yashayapti, balki bir vaqtlar erishgan o'zaro bitimlarga amal qilish, bir-biriga yordam berish, qo'l uzatish, yelkadosh bo'lish o'rniga ular o'rtasida ishonch, afsuski, yo'qolib boryapti.

O'zbek xalqi – sofdil xalq. Biz barcha uzoq-yaqin davlatlar bilan doimo o'zaro ishonch ruhida, hamkor va hamjihat bo'lib yashashga intilamiz.

Hozirgi vaqtda ko'cha-ko'yda bo'ladimi, uyda bo'ladimi, o'tirish yoki ma'rakalarda bo'ladimi, qariyalarning uchrashuvlarida bo'ladimi, ko'pni ko'rgan odamlarning hammasi bitta gap, bitta xulosani aytyapti – el-yurtimizni Xudoning o'zi asrasin. O'zbekiston – bu Ollohning nazari tushgan yurt, deb aytishga asos beradigan misollarni hayotimizda ko'p ko'rganmiz va 2015-yil ham buning yaqqol tasdig'i bo'ldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Shu nuqtayi nazardan qarab, agar hozirning o'zida, yilning boshida hamma ishimizni joy-joyiga qo'ymasak, vaqtimizni bekorga sovurgan bo'lamiz.

Mana, hozir dalalarimizda tuproqning sho'rini yuvadigan, yerni yangi mavsumga tayyorlaydigan, qurilish sohasida buyurtmachi va pudratchilar o'rtasida kelishuvlarga erishish, poydevor qurish ishlarini boshlaydigan payt. Umuman, qaysi sohani olmang, qiladigan ish ko'p – ularning barchasini o'z vaqtida bajarish lozim. Agar sustkashlik, loqaydlik, e'tiborsizlik qilib, shu ishlarga kechikib qolsak, undan keyin ming afsus chekib yurgan bilan boy berilgan vaqtни ortga qaytarib bo'lmaydi. Bu falsafiy qarash emas, bu – hayot haqiqati.

Vaqt shamoldek tez yelib o'tmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz – vaqtни yo'qotmaslik, vaqtdan har tomonlama unumli, samarali foydalanish bo'lishi kerak.

Buning uchun bugun qabul qilingan qarorlarning ijrosini qat'iy nazoratga olishimiz kerak. Nazorat haqida gapirganda, esingizda bo'lsa, sobiq sovet davrida nazoratning ko'pini ko'rganmiz. Partiya nazorati bor edi, xalq nazorati bor edi. Joylarda yana turli nazoratlar bor edi. Hatto komsomol nazorati ham bor edi. Faqat pionerlarning nazorati yo'lga qo'yilmagan edi, xolos. Ammo bularning hammasi xo'jako'rsin uchun edi.

Lekin bugungi kunda haqiqiy nazorat qanday bo'lishi kerak? Avvalo, u, ta'bir joiz bo'lsa, vijdon nazorati, insof nazorati bo'lishi kerak.

Odamlarimiz, xalqimiz agar birov haqida fikr yoki niyat bildirmoqchi bo'lsa, avvalambor nima deydi? Insof-u diyonat bersin, deydi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, xalq bugun bizdan nimani kutyapti? Har bir masalada insof bilan ish yuritishni, haqiqat, adolat muhitini mustahkamlashni kutyapti.

O'tgan yilning 5-dekabr kuni Konstitutsiyamizning 23 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan marosimda so'zlagan ma'ruzamda men juda ko'p o'ylab, bir fikrga alohida urg'u berib, xalqimiz bizdan nafaqat qonun ustuvorligini, ayni paytda hamma sohada uning so'zsiz bajarilishini ta'minlashni, qonun oldida barchaning tengligini, hayotimizda qonun hukmron bo'lishini, adolatli tizimni yanada kengroq joriy qilishni kutyapti, deb aytgan edim. Bu fikr bizning eng oliy maqsadimizni ifoda etishini, o'ylaymanki, barchangiz yaxshi tushunasiz.

Hurmatli do'stlar!

Bugun biz 2016-yilda oldimizda turgan maqsad va vazifalarni atroflicha ko'rib chiqdik, o'tkir va dolzarb masalalar bo'yicha tegishli xulosalarni chiqarib, qattiq bo'lsa ham tanqidiy gaplarni bir-birimizga aytishni ma'qul topdik. Endi ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun belni mahkam bog'lab ishlashimiz kerak.

Bu yo'lda sizlarga yana bir bor eng ezgu niyatlarimni tilab qolaman: hech qachon charchamang, sog'-omon bo'ling, o'z murod-maqsadlaringizga yeting.

Yangi yilimizda ham Yaratganimiz el-yurtimizdan o'z ne'matlarini ayamasin, xalqimizning baxtini, omadini bersin.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI
2015-YILDA IJTIMOYIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA
MO'LJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN
VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN
MAJLISIDAGI MA'RUZASIGA CHET EL
IJTIMOIY-SIYOSIY DOIRALAR VAKILLARI
VA XORIJIY EKSPERTLARNING MUNOSABAT
VA FIKR-MULOHAZALARI**

1. The first part of the report is a general introduction to the subject of the study. It discusses the importance of the problem and the objectives of the research. It also mentions the scope of the study and the methods used.

2. The second part of the report is a detailed description of the experimental work. It includes a description of the apparatus used, the procedure followed, and the results obtained. It also discusses the errors and the limitations of the experiment.

3. The third part of the report is a discussion of the results. It compares the results with the theoretical predictions and with the results of other experiments. It also discusses the implications of the results and the conclusions drawn from them.

4. The fourth part of the report is a summary of the work. It briefly reviews the main points of the report and states the conclusions.

5. The fifth part of the report is a list of references. It includes the names of the authors and the titles of the papers or books referred to in the report.

6. The sixth part of the report is a list of symbols and abbreviations. It defines the symbols and abbreviations used in the report.

7. The seventh part of the report is a list of figures. It includes the titles of the figures and the pages on which they are located.

8. The eighth part of the report is a list of tables. It includes the titles of the tables and the pages on which they are located.

9. The ninth part of the report is a list of appendices. It includes the titles of the appendices and the pages on which they are located.

10. The tenth part of the report is a list of footnotes. It includes the footnotes referred to in the report.

YORG FRIDEN,
Jahon banki ijrochi direktori

Prezident Islom Karimovning o'zbek iqtisodiyotining istiqboldagi rivojlanishi uchun ustuvor vazifalarni o'zida aks ettirgan dasturini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim.

Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan qiyin sharoitda muhim bo'lib borayotgan chaqiriqlarni hal etish uchun taklif etilgan innovatsion islohotlar yuqori bahoga loyiq.

Xususiy sektorga qaratilayotgan e'tiborni alohida qayd qilishni lozim deb topdim – u tobora birinchi darajaga chiqmoqda va O'zbekiston iqtisodiyotida faol o'ringa ega bo'lishga qaratilgan. Hukumat kichik va o'rta biznesni rag'batlantirishga, ularning qiziqishlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kengaytirishga intilmoqda.

Bundan tashqari, ta'lim sohasi hukumatning diqqat markazida bo'lishda davom etmoqda. Hukumat ijtimoiy sohaga davlat budjetining teng yarmini yo'naltirishni maqsad qilganini quvonch bilan tilga olish mumkin.

Prezident Islom Karimov o'z ma'ruzasida «Biznes yuritish» reytingida O'zbekiston qayd etgan ijobiy o'zgarishlarni ham tilga oldi, bu hukumatning Jahon banki bilan samarali hamkorligi natijasidir.

Shuni ta'kidlashni istardimki, Prezident tomonidan belgilangan ustuvor yo'nalishlar haqiqatda Jahon banki guruhi, ayniqsa, Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan o'zaro aloqalarni

rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ma'ruzadan kelib chiqqan holda, biz hamkorlikning barcha jabhalarini qamrab olishimiz lozim va ushbu masalani yaqin vaqt ichida muhokama qilishga kelishib oldik.

URBAN RUSNAK,
Energetika Xartiyasining Bosh kotibi,
Yevropa Ittifoqi

Avvalambor, O'zbekiston rahbariyati va hukumati mamlakatning 2015-yilda qayd etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqaror ko'rsatkichlari bilan tabriklashga ijozat bergaysiz. Jahon bozorida kuzatilayotgan salbiy holat sharoitida ijobiy o'sishga erishilayotgani hayotga tatbiq etilayotgan islohot va o'zgarishlarning to'g'ri yo'nalishda ekanligidan dalolat beradi.

Prezident Islom Karimov tomonidan qulay investitsion muhitni yuzaga keltirish borasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar yuksak bahoga loyiq. Davlat mulkini o'zlashtirishdagi har tomonlama o'ylab amalga oshirilayotgan yondashuv, chet el sarmoyalarini jalb etishda yaratilayotgan sharoitlar, xususiy mulkni himoya qilishdagi kafolat va o'tkazilayotgan sud islohoti mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Menda o'tgan yil noyabr oyida Toshkentda o'tkazilgan Xalqaro investitsion forum doirasida ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bevosita tanishish imkoniyati bo'lgan.

Energetika sohasining rivoji nuqtayi nazaridan an'anaviy energetika quvvatlari bilan bir qatorda, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga alohida e'tibor berilishini oldimizda turgan nihoyatda muhim vazifalardan biri deb hisoblayman. Bunga misol sifatida O'zbekistonda 2015-yilda 130 kVt quvvatga ega fotoelektr stansiyaning foydalanishga topshirilgani.

shuningdek, Samarqandda ulkan quyosh elektr stansiyasining qurilishi rejalashtirilayotganini keltirish mumkin.

DOMINIK RISTORI,
Energetika bo'yicha Yevrokomissiya bosh direktorati
Bosh direktori,
Yevropa Ittifoqi

O'zbekistonning iqtisodiy yutuqlaridan hayratdaman va shuning bilan bir qatorda, xomashyoni chuqur qayta ishlashni ta'minlash bilan iqtisodiyotni diversifikatsiyalashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning naqadar muhim ekanligini ta'kidlamoqchiman. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojida yetakchi omillardan sanaladi.

Prezident Islom Karimov tomonidan bayon etilgan, barcha muhim tarmoqlarni – ishlab chiqarish, infratuzilma, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarni qamrab oluvchi iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiyalashtirish dasturi menda iliq taassurot qoldirdi.

O'zbekiston energiyaning muqobil manbalarini hayotga tatbiq etish va rivojlantirish yo'nalishini o'z vaqtida tanladi. 2015-yilda 130 kVt quvvatga teng quyosh fotoelektr stansiyasining ishga tushirilishi va 2020-yilga qadar 100 MVt quvvatga ega qo'shimcha uchta quyosh elektr stansiyalarini qurishning rejalashtirilishi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

SHIN DONG BIN,
«Lotte Group» kompaniyasi raisi,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, ishbilarmon muhitni rivojlantirish borasidagi siyosatning amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlamoqchiman.

Xususan, biznes-muhitni yaxshilash sohasida qonunchilikning takomillashtirilishi borasida olib borilayotgan ishlarni tilga olmay iloj yo'q. Ma'ruzada iqtisodiy rivojlanishdagi muvaffaqiyat tartiblarning soddalashtirilishi, davlat organlarining xususiy sektorga haddan tashqari ko'p aralashuvining oldini olish, axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va ta'limning rivojlanishi, shuningdek, kichik biznesning kuchli qo'llab-quvvatlashiga bog'liqligi ta'kidlangan.

Aminmanki, bu chora-tadbirlar xorijiy sarmoyadorlarni yanada rag'batlantiradi va mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi.

IN YONG CHONG,
«NK Group» kompaniyasi vitse-prezidenti,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston rahbarining ma'ruzasini o'rganib chiqib, o'zim uchun juda ko'p yangiliklarni qayd qildim.

Birinchidan, O'zbekiston xususiylashtirishning galdagi bosqichini joriy qilishga o'tdi. Shu bilan bir vaqtda, yetarli darajada muvaffaqiyatli, tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan korxonalarning davlat ulushi sotuvga qo'yilgan va alohida e'tibor xorijiy sarmoyalarni jalb etishga qaratilgan.

Fikrimcha, O'zbekiston rahbariyatining bunday har tomonlama o'ylangan yondashuvi mamlakat korxonalariga yangi korporativ madaniyatni joriy qilishga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ko'tarishga va shu asosda jahon bozorlarida muvaffaqiyatli qadam tashlashga imkon beradi.

Ikkinchidan, yakuniy mahsulotni chiqarishda birlamchi xomashyoning har bir shakli uchun chuqur qayta ishlashning to'liq davri dasturining yaratilishi iqtisodiyot samaradorligining ortishiga va eksport salohiyatining o'sishiga turtki bo'ladi.

Uchinchidan, 2030-yilga borib O'zbekiston YIM hajmining ikki baravar o'sishi borasidagi maqsadli vazifa —

amalga oshirish mumkin bo'lgan ishlardan biridir va fikrimcha, o'sishning hozirgi sur'atlari saqlangan holda va o'zbek iqtisodiyotining salohiyatini hisobga olib, bu vazifa muddatidan oldin bajarilishini kutish mumkin.

To'rtinchidan, 2020-yilgacha paxta xomashyosi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 350 ming tonnaga kamaytirilishi va bo'shagan yer maydonlarida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish agrar siyosatning balanslashgan tartibda va optimal ishlab chiqilganini ko'rsatadi, bu esa O'zbekistonni mintaqada va MDH davlatlari orasida oziq-ovqat yetkazib beruvchi yetakchi davlat sifatida tan olinishiga olib keladi.

TEO BRUINSMA,
Niderlandiya oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash va
o'rash jihozlarini ishlab chiqaruvchilar
assotsiatsiyasining prezidenti,
Niderlandiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusligida qonunchilikning barcha bosqichlarida ta'minlanuvchi ishbilarmonlar huquq va qiziqishlarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasidagi keng qamrovli ishlaridan bag'oyat mamnun bo'ldim.

Tilga olingan vazifalar O'zbekiston bilan iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik darajasi o'xshash bo'lgan davlatlarga namuna sifatida xizmat qilishi mumkin.

Niderlandiya ham dunyoda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish borasida yetakchilardan biri bo'lishiga qaramay, O'zbekiston 2015-yilda oziq-ovqat xavfsizligi sohasida mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida mukofotlangan 14 davlatdan biriga aylanganligini eshitish quvonchlidir.

XIROXIKO YAMADA,
«Kubota Corporation» kompaniyasi departamenti
Bosh menejeri,
Yaponiya

Mustaqillik yillari mobaynida respublikada sanoatni rivojlantirish va xomashyo mahsulotlari ulushining eksportdagi umumiy hajmini kamaytirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Prezident Islom Karimov rahnamoligida eng ilg'or texnologik yechimlarni joriy qilish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish borasida amaliy choralar ko'rilmogda.

Qishloq hududlarini rivojlantirish dasturi doirasida zamonaviy uylar, ijtimoiy, yo'l va kommunikatsion inf-ratuzilmani keng miqyosda barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida olib borilayotgan oqilona siyosat samarasi va natijasining isboti sifatida 2015-yil mart oyida o'tkazilgan prezidentlik saylovi yakunlarini keltirish mumkin. Aholining yuqori darajada qo'llab-quvvatlashi O'zbekistonning barqaror rivojlanishining kafolati bo'lib hisoblanadi.

YAN-XENDRIK MOR,
Germaniya-O'zbekiston ishbilarmonlar kengashi raisi,
«KLASS» kompaniyasi boshqaruv a'zosi.
GFR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim.

Respublika rahbariyati tomonidan bayon qilingan, barcha muhim sohalarni o'z ichiga qamrab olgan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va modernizatsiyalanishi borasidagi dastur meni juda xursand qildi.

Iqtisodiy islohotlar, shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida mulkchilik tuzilmasini tubdan o'zgartirish maqsadida qabul qilingan kompleks chora-tadbirlarni yuqori baholayman. Ushbu islohotlar shubhasiz O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishda davom etishida qo'shimcha manbalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, Islom Karimov tomonidan bayon qilingan va O'zbekistonda davom etayotgan katta bunyodkorlik ishlari yangi iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishishda mustahkam poydevor bo'ladi.

YUICHI TANAKA,
«Mitsubishi Xitachi Pauer Sistemz»
kompaniyasi biznes va strategik
rejalashtirish bo'limi katta menejeri,
Yaponiya

Men bir necha bor O'zbekistonda bo'lganman va Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlarning «o'zbek modeli»ning hayotga muvaffaqiyatli tatbiq qilinishi tufayli yuzaga kelgan mustahkam makroiqtisodiy barqarorlik xususiy sektorning jadal o'sishi, iqtisodiyotda ushbu sektor sarmoyasining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, eksport salohiyatining kengayishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratganligiga har safar amin bo'laman. Prezident Islom Karimov tomonidan bayon etilgan, barcha muhim tarmoqlar – sanoat, infratuzilma, xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarni qamrab oluvchi O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish va modernizatsiyalash dasturi bizda ijobiy taassurot uyg'otdi.

2030-yilga borib YIMning ikki barobar oshishi, shuningdek, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish evaziga energiya sarfining ikki baravar kamayishi borasidagi

Prezident tomonidan qo'yilgan maqsadli vazifalarga alohida e'tibor qaratdik. Aminmizki, yangi issiqlik elektr stansiyalari-ning qurilishi va mavjudlarini modernizatsiyalashning hozirgi sur'atlarda davom etishi 2030-yilga kelib YIMda sanoat ulushining 40 foizga yetishini ta'minlaydi.

**U KYUNG NYUNG,
«LS Mtron» kompaniyasi ijrochi vitse-prezidenti,
Koreya Respublikasi**

Prezident Islom Karimovning 2015-yilda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining yakunlari va 2016-yilgi yangi iqtisodiy dasturga bag'ishlangan ma'ruzasi menda katta qiziqish uyg'otdi.

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, yuqori sur'atlarning ta'minlanishida yangi yechimlarning bosqichma-bosqich sing-dirilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi kompaniya sifatida biz O'zbekis-tonning agrar sektoridagi chuqur tashkiliy o'zgarishlarga, jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining jadallashishi, seleksiya ishlarining yaxshilanishi va g'o'za hamda boshqli donlarni yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni puxta egallash tufayli erishilganligiga e'tiborni qaratishni lozim topdik.

Mening fikrimcha, ma'ruzada o'zbek iqtisodiyotining ilg'or, yetakchi iqtisodiyotlar qatoriga qo'shilishi uchun barcha chora-tadbirlar aniq-ravshan aks etgan. Shular qatorida modernizatsiyalashtirish va texnologik qayta jihozlanish, infratuzilmani rivojlantirish, xomashyoni qayta ishlashning to'liq davrini tuzish, zamonaviy agrotexnologiyalar, «elektron hukumat»ni joriy etish bo'yicha choralalar, shuningdek, ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari keltirilgan.

ANDREAS KERN,
«Xaydelberg Sement» kompaniyasi boshqarma a'zosi,
GFR

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqqanimdan so'ng, besh tamoyilga asoslangan «o'zbek modeli»ning ketma-ket va bosqichma-bosqich hayotga tatbiq qilinishi, chora-tadbirlarning o'z vaqtida va puxta ishlab chiqilgani tufayli mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish ta'minlanayotganligiga amin bo'ldim.

Prezident Islom Karimov rahbarligida mustaqillikning ilk yillaridanoq uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunga kelib, dunyoning ko'pchilik davlatlari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini o'zlarida his qilayotgan davrda o'z samarasini bermoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi davomli inqirozga qaramay, O'zbekistonda keng ko'lamli yangilanishlar va bozor mexanizmlarining mustahkamlanishi davom etmoqda, ishlab chiqarish, eksport ko'rsatkichlari, birinchi navbatda, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga yuksalmoqda, uning diversifikatsiyasi va yetkazib berish hududi kengaymoqda, xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Fursatdan foydalanib, Yurtboshingiz tomonidan qo'yilgan uzoq muddatli istiqboldagi maqsad va vazifalarni ado etishda barcha o'zbekistonliklarga chin dildan omad tilayman.

PAK YONG JIN,
«Nurichem Co.» kompaniyasi prezidenti,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini chuqur o'rga-nib chiqib, shuni ishonch bilan aytishim mumkinki, jahon

iqtisodiyotining zamonaviy chaqiriqlariga qaramasdan, O'zbekiston ko'p yillar davomida barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha rivojlanishni namoyish etmoqda, bu esa davlatingiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan oqilona iqtisodiy siyosatdan dalolat beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orasida kichik biznes va xususiy sektorni rivojlantirish borasidagi ishlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin, bunga Prezident ma'ruzasida alohida urg'u berildi.

Samarali chora-tadbirlar natijasida bugungi kunda O'zbekiston YIMda kichik biznesning ulushi 50 foizdan oshib ketdi. Aholining katta qismi mehnat qiluvchi sanoat sohasida YIMning ulushi uchdan birni tashkil etadi. Prezident Islom Karimovning kichik va xususiy biznesga urg'u bergan holda istiqbolda mamlakat rivojini ko'ra olayotgani insonni hayratda qoldiradi, bu esa, shubhasiz, o'zbek iqtisodiyotining mustahkam va barqaror rivojlanishida yetakchi kuchga aylanadi.

EDGAR KLOZE,
Brandenburg texnologiyalar va innovatsiyalarni
rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash
instituti boshqarma raisi,
GFR

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, O'zbekiston qayd etgan iqtisodiy ko'rsatkichlar nihoyatda hayratlanarli ekanligini ta'kidlamoqchiman.

Iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, O'zbekiston sanoat salohiyatining yuksalishi, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich joriy qilish natijasida 2015-yilda mamlakatda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33 foizdan oshib ketganligiga alohida e'tiborni qaratmoqchiman.

Endilikda O'zbekiston o'z oldiga 2030-yilga borib YIM hajmini kamida ikki barobarga oshirish vazifasini qo'ydi. Respublikaning mavjud ulkan salohiyatini inobatga olib, ushbu maqsadga erishish mumkin, deb hisoblayman.

Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari tomonidan berilayotgan baho O'zbekiston xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimida o'z o'rini tobora mustahkamlab borayotgani va jahon sahnasida ishonchli hamkorga aylanayotganini yana bir bor isbotladi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirayotib, mamlakat iqtisodiyotga keyinchalik ham xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratayotgani diqqatga sazovor. Bu holat nafaqat respublika eksport salohiyatining mustahkamlanishiga, balki aholi farovonligi va hayot darajasining oshishiga ko'maklashadi.

Yurtingizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida olib borilayotgan ishlar ham e'tiborga loyiq. Bunga «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, shuningdek, Prezident Islom Karimov tomonidan 2016-yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishini yaqqol misol qilish mumkin. Men O'zbekiston rahbariyati va xalqiga mamlakat oldida turgan uzoq muddatli maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolaman.

SEBASTYAN MORI,
Osiyoni o'rganish Yevropa instituti ilmiy xodimi,
Belgiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasi respublikada so'nggi vaqtlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning keng qamrovli va chuqur tahlili hisoblanadi.

Yosh mustaqil davlat sifatida O'zbekiston xalqaro sahnadagi roli va o'rini jiddiy ravishda mustahkamlashga imkon bergan bir qator zarur islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Respublikadagi modernizatsiyalashtirish jarayoni 2015-yil yakunlariga ko'ra 8 foizni tashkil etgan iqtisodiyotning barqaror o'sishga erishishida muhim ijobiy qadam sanaladi. Shuning bilan birga xizmat ko'rsatish sohasi, bir qator energetika va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda, shuningdek, ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlardagi yutuqlarni alohida ko'rsatish mumkin.

Yuqorida tilga olingan muvaffaqiyatlar o'zbek xalqi jahon hamjamiyatining boshqa davlatlari bilan bemaolol raqobatlasha oluvchi turmush tarzining uzluksiz o'sib borishi va hayot sifatining yuksalishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu nuqtayi nazardan Butunjahon iqtisodiy forumi sizning mamlakatingizni dunyoning eng tez rivojlanayotgan besh davlati qatoriga qo'shgani ham bejiz emas.

MATE BULEG,

**Tashqi siyosiy tahlil fransuz
markazining eksperti,
Fransiya**

O'zbekistonga, unda yuz berayotgan yangilanish va o'zgarishlarga qiziqishim doimo katta bo'lgan. Avvalo, o'zbek iqtisodiyotining aholi farovonligi va yashash sharoitining yaxshilanishini nazarda tutuvchi ijtimoiy yo'nalganligini alohida e'tirof etishni xohlardim.

Jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan qiyin sharoitda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari barqaror yuksalib borayotgani ham e'tiborga molik. Bu, shubhasiz, har tomonlama puxta ishlab chiqilgan islohotlar samarasidir.

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, sizning mamlakatingiz iqtisodiyotda davlatning ishtirokini kamaytirish va mavjud mulk tuzilmasini o'zgartirish borasida ishonchli odimlayotganligini ko'rish mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra ishbilarmonlik uchun qulay muhitni yaratishni nazarda tutuvchi bunday munosabat davlatning iqtisodiy rivojlanishida zarur shart-sharoitlarni kafolatlaydi.

Prezident Islom Karimov o'z ma'ruzasida ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtda O'zbekiston so'nggi yillarda ishbilarmonlik faoliyati uchun qulay muhitni yaratish borasida eng yaxshi natijalarni qayd etgan birinchi o'ntalikka kiradi. Ishonchim komilki, tanlangan iqtisodiy yo'nalish davlatingizning keyinchalik ham rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

STIV TRUPIN,
Ma'muriy fanlar Xalqaro institutining
strategik loyihalar bo'yicha eksperti,
Belgiya

Prezident Islom Karimov o'z nutqida O'zbekistonda boshqaruv tizimidagi qarashlar va munosabatlarning tubdan isloh qilinishi, uning asl bozor xarakterining kuchayishi borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.

Respublikada korporativ boshqaruv sohasida ilg'or xalqaro tajribalarni doimiy o'rganishga, ushbu tajribalarning eng yaxshi namunalarini mahalliy sharoitda qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlaridagi boshqaruv lavozimlariga bilimli, korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublaridan xabardor yoshlar kelmoqda, bu esa, nazarimda, ko'pgina o'zbek korxonalarining rivojiga yangi turtki beradi va iqtisodiyotning barqaror o'sishda davom etishini ta'minlaydi.

JAN-LUI ROLO,
Vallon agronomiya tadqiqotlari markazi menejeri,
Belgiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, mamlakatning rivojlanishi bilan bog'liq iqtisodiy dastur ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning keng doirasini amalga oshirishga, shu qatorda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilganligiga amin bo'ldim.

Mening fikrimcha, davlat va jamoat xo'jaliklarining tugatilishi hisobiga xususiy fermer xo'jaliklarini tashkil etish O'zbekiston rahbariyatining o'zini oqlagan qarori bo'lib chiqdi, boisi bu kelajakda ishlab chiqarishning unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Ishonchim komilki, qishloq xo'jaligidagi islohotlarning chuqurlashtirilishi va o'zgarishlar, 2016-yil va yaqin kelajakda iqtisodiy dasturning ustuvor maqsadi hisoblangan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish O'zbekistonda qishloq xo'jaligining yanada faol rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

CHUNG YOL I,
Koreya transport instituti vitse-prezidenti,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimovning nutqi menga O'zbekiston so'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda erishgan yutuqlar bilan yaqinroq tanishishga imkon berdi.

Shuni ishonch bilan ayta olamanki, mamlakatning hozirgi iqtisodiy siyosati O'zbekistonning o'nlab yillar keyingi rivojlanishi uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Bu borada, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sishining yuqori ko'rsatkichlari sharoitida YIMni ikki barobar ko'paytirish vazifasi amalga oshirib bo'ladigan maqsad sifatida qaralmoqda.

Transport sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis sifatida, men yo'l-transport infratuzilmasi yo'nalishida bajarilayotgan ishlardan juda ham hayratdaman. Qamchiq dovoni orqali o'tuvchi temiryo'l tunnelini qurish bo'yicha loyihaning amalga oshirilishi e'tiborga sazovor. Ishonamanki, uning muvaffaqiyatli qurib bitkazilishi sarmoyadorlarni jalb etgan holda O'zbekiston hududlarining ishlab chiqarish salohiyati ortishiga ko'mak beradi.

MARSEL FAN XAREN,
Niderlandiya oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash va
o'rash jihozlarini ishlab chiqaruvchilar
assotsiatsiyasining direktori,
Niderlandiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini o'rganib chiqib, O'zbekistonda ishbilarmonlik faoliyatini muvaffaqiyatli olib borish uchun yaratilgan qulay sharoitlardan, shu jumladan, qulay investitsion muhit, amaldagi keng imtiyozlar tizimi, xorijiy sarmoyadorlarning huquq va qiziqishlarini himoya qilish borasidagi kafolatlarni ko'rib behad xursand bo'ldim.

Fikrimcha, 2015-yilda yuqori texnologiyali va zamonaviy sanoat korxonalarining ishga tushirilishi hamda 2016-yilga belgilangan aniq rejalar mamlakat iqtisodiyoti puxta o'ylangan dastur asosida bosqichma-bosqich rivojlanayotganligidan darak beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va eksportga jo'natish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish borasida mintaqada o'ziga xos markazga aylandi.

Ishonamanki, ekin maydonlarining optimallashtirilishi, zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy qilinishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining

oshirilishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida O'zbekistonning dunyodagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

LI XYU VON,
«Hyundai BS&C» kompaniyasi raisi,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini o'rganib chiqib, men dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqiroz sharoitida O'zbekiston qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlardan hayratda qoldim.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, qulay investitsion muhitning yaratilishi, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining texnologik qayta jihozlanishi borasida mamlakatda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlashda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekistonning amalga oshirilayotgan investitsion siyosati ham e'tiborni tortadi. O'zbekiston rahbarining ma'ruzasida ta'kidlanganidek, jalb qilingan sarmoyalar 9,5 foizga o'sdi va e'tiborlisi, sarmoyalarning asosiy ulushi ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirildi.

Fikrimcha, bu munosib darajada raqobatlashgan holda tizimli ravishda jahon bozoriga chiqayotgan O'zbekiston sanoatining muvaffaqiyatli rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

SURADJ SINGX,
Hindiston savdo va sanoat vazirligi qoshidagi
sanoat eksporti bo'yicha Kengash
departamenti direktori,
Hindiston

O'zbekiston Prezidentining ma'ruzasi bilan tanishib chiqqach, 2015-yilda mamlakat iqtisodiyoti qayd etgan natijalardan ijobiy taassurotlar oldim.

Tizimdagi o'zgarishlar, xususiyl ishbilarmonlik va kichik biznes qiziqishlarini himoyalashni ta'minlash, sud idoralari-ning rolini kuchaytirish, mikrofirma, kichik korxonalar va fermerlik xo'jaliklari faoliyatini tekshirishlarni kamaytirish, korporativ boshqaruv tizimidagi keskin o'zgarishlarga qaratilgan dasturning bajarilishi, shubhasiz, o'zbek strategiyasining puxta o'ylangan iqtisodiy islohotlaridan dalolatdir.

Mamlakat rahbariyati tomonidan qo'yilgan vazifalar, jumladan, qishloq xo'jaligini bundan keyin ham rivojlantirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish alohida qiziqish uyg'otmoqda.

O'zbekiston mintaqadagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchi yetakchi davlat ekanligini e'tiborga olib, eksportchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, eksportda fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ancha ahamiyatli omil hisoblanadi.

KIM YUN SIK,
«Shindong Enerkom» kompaniyasi raisi,
«O'zbekiston – Koreya» hamdo'stlik
assotsiatsiyasi raisi,
Koreya Respublikasi

2015-yil natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlanish strategiyasining to'g'riligi, puxta o'ylanganligi va yuqori samarali ekanligini yana bir bor namoyish qildi.

O'zbek iqtisodiyoti sifatli rivojlanish yo'lidan bormoqda: YIM, sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish ishlarining o'sishi bir vaqtning o'zida budjet profitsitining saqlanishi, ijobiy savdo saldosi, shuningdek, me'yordagi inflyatsiya sur'atiga ega to'lov balansi bilan ta'minlanmoqda. Islohotlarning «o'zbek modeli» asosiy ustunliklari ham aynan shularda aks etadi.

Hozirgi sharoitda, ko'pchilik davlatlar oldida davom etayotgan global inqirozning salbiy oqibatlariga «chap berish» vazifasi kun tartibida turgan bir vaqtda, O'zbekiston o'z oldiga 2030-yilga borib YIMni ikki baravar oshirish maqsadini qo'yimoqda.

O'zbekiston Prezidenti ma'ruzasida mamlakat iqtisodiyotini ikki karra oshirish uchun yillik o'rtacha o'sish sur'atining 4,8 foizda saqlanishi ta'minlanayotganligi ham aytib o'tildi. Ishonchim komilki, O'zbekiston ushbu ko'rsatkichdan yengillik bilan o'tib ketadi, boisi so'nggi o'n yil davomida mamlakatda YIMning o'rtacha o'sish sur'ati 8 foizdan kam bo'lmagan natijani qayd etmoqda.

IN TEK CHANG,
«Suwan TPL» kompaniyasi vitse-prezidenti,
Koreya Respublikasi

O'zbekistonning 2015-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim. Unda nafaqat 2016-yilga, balki undan keyingi davr uchun ham O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari aniq-ravshan belgilab berilgan.

Hukumat uchun kompleks harakat dasturi bo'lishi bilan bir qatorda, ma'ruza iqtisodiyotning qator tarmoqlari rivojlanishida asosiy yo'nalishlarni o'ziga qamrab olgan: 2030-yilga borib neft-gaz-kimyo va kimyo mahsulotlarini uch baravar, to'qimachilik, yengil sanoat, shuningdek, meva va sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishni besh baravar oshirish vazifalari qo'yilgan. Jahon iqtisodiyotida kuza-

tilayotgan pasayish sharoitida bu bajarilishi qiyin bo'lgan masaladek tuyulsa ham, ishonamanki, O'zbekistonda Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yurtingizda barcha imkoniyat va salohiyatlar mavjud.

YUKIXIKO NASHIMOTO,
«Shimizu Corporation»ning biznesni
rivojlantirish bo'yicha direktori,
Yaponiya

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanishning noyob «o'zbek modeli» doirasida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ulkan yutuqlarga erishdi. O'zbekiston oxirgi o'n yil davomida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda.

Kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib qolmoqda. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, yuqori bilimga ega va malakali aholi O'zbekistonning asosiy boyligi hisoblanadi. Davlat budjeti xarajatlarining taxminan 60 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgani quvonarli hol. O'ylashimcha, aynan shunday g'amxo'rlik tufayli mamlakatda daromad ko'rsatkichlari bo'yicha keskin tabaqalanishni oldini olishning uddasidan chiqilmoqda.

KIM DE RUN,
«Shinsung Solar Energy» kompaniyasi prezidenti,
Koreya Respublikasi

Bugun Prezident Islom Karimovning oqilona rahbarligi ostida O'zbekiston kelajakka ishonch bilan qaramoqda. Jahon iqtisodiyotidagi inqiroz hodisalarining davom etayotganligiga

qaramay, O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi islohotlarning faol bardavomligi chin dildan hurmat uyg'otadi.

Biz O'zbekistonning energiya hajmini ikki marta kamaytirish bilan bir qatorda, YIMni ikki baravar oshirish rejalariga katta qiziqish bilan qaraymiz. Shunisi diqqatga sazovorki, ushbu yo'nalishda O'zbekiston quyoshli tajriba fotoelektr stansiyasini muvaffaqiyatli ishga tushirgan holda aniq qadamlar qo'ydi.

Buning ustiga, davlat rahbarining ma'ruzasida bayon etilganidek, O'zbekiston 2020-yilga borib bir qator fotoelektr stansiyalarni ishga tushirishni rejalashtirmoqda, bu esa, shubhasiz, mamlakat iqtisodiyoti energiya tejamini va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MASASHI SHIMANUKI,
«Tonen General Sekiyu KK» kompaniyasi
prezidentining katta yordamchisi,
Yaponiya

O'zbekiston biz uchun yangi davlat hisoblanadi, boisi bizning faoliyatimiz, asosan, Yaqin Sharq davlatlari bilan (neft va neft mahsulotlari yetkazib berishda) hamkorlik qilishga ixtisoslashgan edi. Sizning yurtingiz haqida biz so'nggi yillarda juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldik, ayniqsa, Yaponiya bosh vaziri Sh. Abening Markaziy Osiyo bo'ylab uyushtirgan safari jarayonida O'zbekiston bilan yaqindan tanishdik. Yapon OAVda eng yorqin dasturlar aynan O'zbekistonga uyushtirilgan safar yakunlariga bag'ishlanganini qayd etib o'tmoqchiman.

Prezident Islom Karimovning yanvar oyidagi ma'ruzasi bilan tanishib chiqqach, biz O'zbekiston mustaqillik yillarida kuchli iqtisodiyot, siyosiy va ijtimoiy tizimni bunyod etishda katta yutuqlarga erishganligining shohidi

bo'ldik. Ixtisosligimiz tufayli biz 2030-yilga borib yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni tayyorlash bilan neft-gaz mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3,2 marta oshirish borasida davlat rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalarga e'tiborimizni qaratdik. Ishonchim komilki, ishlab chiqarishning bugungi diversifikatsiya va modernizatsiya sur'atlari bilan uning YIMdagi ulushini 2030-yilga borib 40 foizga yetkazish borasidagi yana bir maqsad ham yaqin yillar ichida zabt etiladi.

GERT MUIYS,
«Robland» kompaniyasi boshqaruvchi direktori,
Belgiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasida O'zbekiston boy bo'lgan mineral va o'simlik xomashyosi manbalarini bosqichma-bosqich chuqur qayta ishlash, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi va sonini kengaytirish borasidagi mamlakat iqtisodiy dasturining amalga oshirilishidek muhim yo'nalishga e'tibor qaratdim.

Shu munosabat bilan jahon iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarining chuqur tahlili va mamlakatda mavjud bo'lgan manba va imkoniyatlarning haqiqiy holatidan kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston 2030-yilga borib YIM hajmini ikki baravar oshirish va YIMda ishlab chiqarish ulushini 40 foizga yetkazishni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yish borasida barcha asoslarga ega ekanligi haqida muhtaram Islom Karimov janoblarining fikrlarini to'liq qo'llab-quvvatlayman.

RAMIN MERGANPO,
«Lutron Electronics» kompaniyasi vitse-prezidenti,
AQSH

Prezident Islom Karimovning mamlakatning 2015-yildagi rivojlanishi natijalari va 2016-yilga mo'ljallangan

ustuvor vazifalari aks etgan ma'ruzasi hal qiluvchi ahamiyatga ega – u xalqni ruhlantiradi, faxr-iftixor hissini uyg'otadi. Bundan tashqari, Islom Karimov tomonidan bayon qilingan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va modernizatsiyalashtirish dasturi mamlakatda ishbilarmonlik ruhining shakllanishi uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Biz O'zbekistonning demokratik islohotlar va barqaror rivojlanishni ta'minlash borasidagi yuksalishlaridan xabar-dormiz, bu oxir-oqibatda mamlakat aholisining turmush darajasida o'z aksini topmay qolmaydi. Shu bilan bir qatorda, bizning fikrimizcha, xususiy tadbirkorlik rolini oshirish va kichik biznesni rag'batlantirish, shuningdek, kompaniyalarda davlat ulushining kamaytirilishi borasidagi ustuvor islohotlar ijobiy, uzoq muddatli samara berishi shubhasiz.

Bundan tashqari, O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar yorqin ifodalangan ijtimoiy maqsadga ega. Prezident Islom Karimov tomonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga va yuqori malakali kadrlarni shakllantirishga qaratilayotgan e'tibor O'zbekistonning turli tarmoqlariga xorijiy sarmoyalarning yanada ko'p jalb etilishini, mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishini ta'minlaydi.

MURTI MOXAN,
Hindiston sanoat Konfederatsiyasi
direktori o'rinbosari,
Hindiston

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlari ro'yxatiga kirgan holda milliy iqtisodiyotning jadal sur'atlarda o'sishini namoyish qilmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini himoya qilish, xususiy mulkchilikning ustuvor rolini ta'minlash va O'zbekiston iqtisodiyotida davlatning ishtirokini qisqartirishga

yo'naltirilgan davlat Dasturining amalga oshirilishi alohida e'tiborga sazovor.

Uzoq istiqbolda iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga erishish uchun zarur shart hisoblangan sanoat va infratuzilmani keng ko'lamda modernizatsiyalashtirishga uzoqni ko'zlab siyosat yuritayotgan Prezident Islom Karimovning alohida e'tibor qaratayotganini ham ta'kidlab o'tmoqchiman.

PAK XIN U,
«HD Precision» kompaniyasining
Bosh ijrochi direktori,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, o'z sanoatini rivojlantirish uchun davlat rahbariyati tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni ko'rib, ochig'i, hayratda qoldim. Kuchli sanoatlashgan negizni barpo etish uchun bir qator dasturlar bajarilmoqda va rejalashtirilmoqda, bular – ixtisoslashtirish, xususiylashtirish, infratuzilmaning rivojlanishidir.

Shu bilan birga, ma'ruzada tilga olingan birlamchi xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi dastur sanoatni rivojlantirishda yetakchi kuchga aylanishi muqarrar. Sababi, birinchidan, u respublikaning xomashyo bazasini sezilarli darajada mustahkamlaydi, ikkinchidan esa, ishlab chiqarilayotgan mahsulot navlarining jadal sur'atlarda kengayishiga, uning qo'shilgan qiymatining oshishiga va keyinchalik eksport qilinishiga zamin yaratadi.

Dastur ushbu yo'nalishda katta tajribaga ega bo'lgan Janubiy Koreya kompaniyalariga o'zbek iqtisodiyoti sanoatlashtirilishining ushbu «to'liqini»ga muvaffaqiyatli kirishi va shu bilan o'z biznesining samarasini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

MATSUO DEGUCHI,
«Nisshin Oillio» kompaniyasi xalqaro aloqalar
departamenti katta menejeri,
Yaponiya

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bosqichma-bosqich va barqaror asosda o'zining keyingi muvaffaqiyatli rivoji uchun poydevor bo'lgan o'z iqtisodiyotining tuzilishini tubdan o'zgartirishga, hal qiluvchi islohotlar o'tkazishga erishdi. Erishilgan natijalarda asosiy rolni Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan islohotlar strategiyasi o'ynayotgani quvonarli holat.

Dunyo miqyosidagi inqiroz sharoitida investorlar chet eldagi o'z faoliyatlarini qisqartirayotgan bir paytda, O'zbekiston to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hajmini izchillik bilan oshirib bormoqda, bu esa mamlakatning ulkan salohiyati, uning barqarorligi, Prezident Islom Karimov olib borayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligidan dalolat beradi.

LI KIN XIN,
«BHI Co., Ltd.» kompaniyasi raisi,
Koreya Respublikasi

Biz mamlakatda korporativ boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan siyosatning naqadar chuqur o'ylab amalga oshirilganligiga amin bo'ldik.

O'zbekiston, asosan, ilg'or texnologiyalarning yuqori malakali kadrlar bilan ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilinishiga urg'u berilgan xususiylashtirish siyosatini muvofiq tarzda o'tkazmoqda. O'zbekiston Prezidentining ma'ruzasida sanab o'tilgan, yetarli darajada barqaror hisoblangan davlat korxonalarining ulushlari sotuvga qo'yilganligi ham e'tiborni

tortadi. Ushbu strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'zbek korxonalarini asta-sekin dunyo miqyosiga olib chiqishga imkon beradi.

TETSUYA KAVAMATA,
«Renesas Electronics Corporation» kompaniyasi
savdo departamentining rivojlantirish
bo'yicha katta menejeri,
Yaponiya

Kuzatishlarimdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston erishgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, davlat dasturlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, keng ko'lamli modernizatsiyalashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishning texnik va texnologik yangilanishi, ijtimoiy, yo'l-transport va kommunikatsion infratuzilmaning rivojlanishi yuqori bahoga loyiq, deb hisoblayman.

2030-yilgacha qo'yilgan vazifalar borasida shuni ta'kidlashni istardimki, ko'pchilik davlatlar o'z iqtisodiyotining rivojlanishi uchun jiddiy qadamlar qo'ymay, o'z yo'lini «bir oqimda» davom ettirishmoqda. Yurtboshingizning sizning oldingizga aniq maqsadlarni qo'yganligi uning uzoqni ko'ra bilishi va maqsadga intiluvchanligidan dalolat beradi. Davlatingizdagi YIMning so'nggi 12 yil davomida yiliga o'rtacha 8 foizdan kam bo'lmagan sur'atda o'sishini inobatga olib, 2030-yilga borib O'zbekiston YIMning kamida ikki baravar o'sishga erishishi borasida qo'yilgan maqsadlar asosli ekanligiga ishonch hosil qildim. Shu bilan bir qatorda, ushbu jarayonlarda yapon kompaniyalarining faol ishtirok etishiga umid qilib qolaman.

LUIJI IPERTI,
«Techint Industrial Corporation» kompaniyasining
ijrochi direktori, «Italiya–O‘zbekiston» Qo‘shma
savdo palatasining prezidenti,
Italiya

Prezident Islom Karimovning ma’ruzasini tahlil etgan holda, u kishining uzoq muddatga mo’ljallangan maqsadlarni aniq-tiniq ko’ra bilishi, o’tgan yilning ijobiy natijalarida to’xtab qolmasdan, nafaqat 2016-yilda, qolaversa, kelgusi o’n yillikda ham yangi dasturlarni amalga oshirib, istiqbolga intilishidan qattiq mutaassir bo’ldim.

O‘zbekiston Respublikasi rahbarining nutqidan shunday xulosa kelib chiqadiki, qo’yilgan maqsadlarning hal etilishi ko’p borada rasmiyatchilik tadbirlarini soddalashtirishga, xususiyl sektorlar faoliyatiga davlat organlarining noo’rin aralashuviga yo’l qo’ymaslikka, innovatsiya va ta’limga, xorij investitsiyalarini jalb qilishga, kichik biznesni qo’llab-quvvatlashga bog’liqdir. Shuni ta’kidlash lozimki, kichik biznes allaqachon mamlakat YIMning 56,7 foizini tashkil etib, ish bilan band aholining umumiy soniga nisbatan 77 foiz aholini ish bilan ta’minlay olgan.

Shu yili O‘zbekiston o‘z mustaqilligining 25 yilligini nishonlaydi. Shu yerda mamlakatingiz Prezidentining ushbu muhim ahamiyatga ega bo’lgan sanada 2016-yil ham munosib o’ringa ega bo’lishi uchun munosib hissa qo’shish har bir yurtdoshimiz uchun iftixordir, degan so’zlarini yodga olmaslikning iloji yo’q.

«Italiya–O‘zbekiston» Qo‘shma palatasi sizning mamlakatingiz bilan hamkorlik qilishdan faxrlanadi, shu bois biz Prezident Islom Karimov tomonidan belgilangan amalda joriyl bo’ladigan rejalar va dasturlarga qo’shilamiz hamda uni qo’llab-quvvatlaymiz.

**MELISSA RASSELL,
«Caterpillar» hukumatlararo aloqalar
kompaniyasining direktori,
AQSH**

Prezident Islom Karimovning savdo-sotiq sohasining shakllanishi va rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratayotganligining sharofati bilan O'zbekiston har yili xorij investitsiyalarini to'g'ridan to'g'ri oqib kelishining oshishiga erishmoqda, bu, o'z navbatida, sarmoyadorlarning mamlakat barqarorligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda. So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga xorij investitsiyalarining to'g'ridan to'g'ri jalb etilishi ko'lami jiddiy ravishda ko'tarilib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, eng zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va korxonalarni texnologik jihatdan yangilash bo'yicha O'zbekiston rahbariyati tomonidan tanlangan ustuvorlik iqtisodiyot sohasining barqaror rivoji uchun kafolat bo'lib xizmat qiladi. Shubhasiz, O'zbekiston boy bo'lgan mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash mamlakat korxonalari ishlab chiqaradigan mahsulotlar sonining sezilarli darajada kengayishiga ko'mak beradi. Yangi texnologiyalarni qo'llagan holda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga urg'u berilishi, shak-shubhasiz, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshliligi ko'tarilishini, uning uzoq muddatli va bardavom rivojlanishini ta'minlaydi.

**SILVI D'IZARN,
«d'Izarn Com» raqamli nashrlar nashriyoti
va media-kompaniyasi direktori, «Tachkent-Paris»
elektron jurnali bosh muharriri,
Italiya**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi va unda keltirilgan

statistik ma'lumotlar mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustahkam va olg'a qarab rivojlanishi, aholi farovonligining jo'shqin o'sib borishidan guvohlik beradi.

O'zbekiston davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan asosiy maqsadi – insonlar hayotining munosib darajasi va sifatini ta'minlovchi kuchli ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga ega dunyoning demokratik rivojlangan davlatlari darajasiga chiqishga qarab intilib bormoqda.

Meni respublikaning 2015-yildagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hayron qoldirdi. 8 foizni tashkil etuvchi O'zbekiston YIMning og'ishmay o'sib borishi, qolaversa, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi hajmining 8 foizga va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 7 foizga o'sishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha respublika hukumati tomonidan ishlab chiqilgan strategiya bilan samaradorligidan darak beradi.

O'zbekiston erishayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar, jumladan, Jahon banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotlari (FAO) va boshqa institutlar tomonidan yuqori baholanayotganligi maqtovga sazovordir.

Jahon bankining bugun O'zbekiston so'nggi yilda tadbirkorlik faoliyati savdo-sotiq muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyo mamlakatlarining birinchi o'ntaligiga kirganligi haqidagi hisoboti yakuni alohida e'tiborga loyiqdir.

JAFAR HUSAYN,
«MUEZ-HES» kompaniyasi loyihasining direktori,
Hindiston

Prezidentingizning ma'ruzasida ta'kidlab o'tilgan O'zbekistonning iqtisodiy muvaffaqiyatlari menda katta taassurot qoldirdi. Ichki qarzlarning yo'qligi, YIMga nisbatan 18,5

foizdan oshmaydigan arziyas tashqi qarzlarni, aholi daromadining o'sib borishi xorijiy investorlarning O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi Prezident Islom Karimov rahbarligida mamlakatingiz tanlagan taraqqiyot modelining samaradorligini tasdiqlaydi. Budget, moliya-bank va kredit tizimlari, iqtisod tarmoqlarining amaliy sektorlari, modernizatsiya, sanoatni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash kabi iqtisodiy yo'nalishlariga muhim ahamiyat qaratish alohida e'tiborga egadir.

YEUEJENIO NOVARIO,
«Italiya – Yevropa – Osiyo» eksport
konsorsiumining ijrochi vitse-raisi,
Italiya

Prezident Islom Karimovning mamlakat hukumati majlisidagi ma'ruzasi O'zbekiston xususiy mulkchilikning daxlsizligini qonuniy, me'yoriy va huquqiy tomondan ta'minlab, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes manfaatlarini himoya qiladigan iqtisodning tadrijiy strukturaviy islohotlarini ta'minlovchi chuqur va har tomonlama o'ylangan milliy rejasi asosida harakatlanib, rivojlanayotganligining yaqqol isboti bo'ldi.

Korporativ boshqaruv tizimining chinakam bozor xarakterini baxsh etish va o'zgartirish, bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarining xodim va mutaxassislarini tayyorlash hamda ularning mahoratini oshirish maqsadlarida qilinayotgan bugungi ulkan ishlarni alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Shu bilan birga, men Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, mamlakatingiz dunyoda iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar beshtaligiga kirganligidan hayratda qoldim.

O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari taqdimotidan menda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar borasida yetarlicha axborotga ega bo'lish uchun sizning mamlakatingiz haqida Italiyada ilk ma'lumotlar byulletenini yaratish fikri tug'ildi. O'ylaymanki, birinchi galda nashrni italiyalik mutaxassislarning baholari bilan Prezident Islom Karimov ma'ruzasining asosiy jihatlariga bag'ishlaymiz.

JILBERT SALINAS,
«Shimol – Janub» iqtisodiy va madaniy
rivojlanish Agentligi prezidenti,
Fransiya

2015-yilda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi yakunlari o'tgan yildagi kabi eng yuqori baholarga munosib. Mamlakat iqtisodiyoti g'oyat diversifikatsiyalashgan, uning erkinlashtirilishi va xususiy sektor rivoji bo'yicha juda muhim chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Shuni alohida ta'kidlab o'tishni xohlardimki, iqtisodiyotda kichik biznesning 57 foizga erishgan ulushi, hatto rivojlangan mamlakatlar uchun ham o'ta yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Investitsiya strukturasi uzoq yillik rivojlanishning kafolati bo'lmish investitsiyalarning sanoatdagi maqsadga qaratilganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, aholining kuchli ijtimoiy himoyasi ham ta'minlanadi. Prezident Islom Karimovning 2016-yilni «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi haqidagi tashabbusi buning yana bir tasdig'i bo'ldi.

Davlatingizning so'nggi yutuqlari bilan tanishib chiqar ekanman, bu zafarlar dunyo mamlakatlari tomonidan ham e'tirof etilayotganligini mamnuniyat bilan ta'kidlayman. Shunisi quvonarliki, 2015-yili O'zbekiston BMT (FAO) ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotlariga a'zo davlatlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida

mingyillik taraqqiyot maqsadlari bo'yicha erishgan yutuqlari uchun mukofot olgan 14 mamlakatdan biri bo'ldi.

Shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov jahon iqtisodiyotining bugungi holatidan kelib chiqqan holda mamlakat taraqqiyotining yo'nalishlariga aniq baho berib, ularni nafaqat kelgusi yillarga, balki yaqin o'n yilliklarga juda to'g'ri belgilab berdi, aniq-ravshan maqsadlar qo'ydi. Ishonchim komilki, mamlakatda shakllangan mustahkam poydevor va iqtisodiy bazalarni hisobga olgan holda, tez orada barcha qo'yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishilishining guvohi bo'lamiz.

SHINGO UEDA,
«Mitsubishi Heavy Industries»
kompaniyasining loyihalashtirish
departamenti katta bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning sermazmun ma'ruzasi biz uchun O'zbekiston iqtisodiyoti va imkoniyatlarining shu kundagi ahvolini xolis baholashda navbatdagi muhim axborot manbai bo'lib xizmat qildi. Qat'iy ishonamizki, mustaqillik yillarida Prezident rahbarligi ostida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligi darajasining o'sishi bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Iqtisodiy tuzilmada muhim islohotlarning maqsadga yo'naltirilib amalga oshirilishi ma'ruzada Prezident Islom Karimov tomonidan belgilangan 2030-yilgacha maqsadli vazifalarga erishishida mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, mamlakat Konstitutsiyasidan boshlab huquqiy amaliyotgacha bo'lgan O'zbekiston qonunlarining barcha pog'onalarida kafolat bo'luvchi tadbirkorlik huquqlari va manfaatlarining ishonchli himoyalaniishi islohotlari Dasturida ajratilgan muhim qiymat ham kishida katta taassurot qoldiradi.

TREVOR GANN,
«Medtronic» kompaniyasi vitse-prezidenti,
AQSH

Fikrimcha, o'z xalqi uchun katta mablag' sarflagan mamlakatgina buyuk kelajak, taraqqiyot va farovonlikka erishishi mumkin. O'zbekiston mamlakat budjetining salmoqli qismini sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirayotgan kam sonli davlatlardan biri sanaladi. Tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlarini sog'liqni saqlash sohasiga joriy etish bo'yicha bir qator davlat dasturlari izchil amalga oshirilishi kuzatiladi.

O'zbekistonda joriy qilingan har bir yilni ma'lum bir jabhaga bag'ishlanishi, jumladan, 2016-yilni Sog'lom ona va bola yili deb e'lon qilinishi borasida qo'llanilayotgan amaliyot menda chuqur taassurot qoldirdi. Bu davlat siyosatining ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarining taraqqiy topishiga ko'mak beradi, zamonaviy jamiyatning eng muhim masalalariga e'tibor qaratishga undaydi. Yana shunisi quvonarliki, sog'liqni saqlash tizimining takomillashishi va rivojlanishi, oila, onalar va bolalarga g'amxo'rlik qilish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov uchun birinchi galdagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

AKITO YANAGIXARA,
«JFE Engineering Corporation» kompaniyasining
«Aqlli shaharlar» loyihasi bo'yicha menejeri,
Yaponiya

O'zbekistonning erishgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, keng ko'lamli modernizatsiyalashga yo'naltirilgan davlat dasturlari, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi, sanoatning texnik va texnologik jihatdan

yangilanishi, ijtimoiy, yo'l-transport va kommunikatsion infratuzilmalarning rivojlanishi tahsinga loyiqdir.

Hamon davom etib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining pasayib borayotganligi bo'yicha o'z prognozlarini qaytadan ko'rib chiqishayotganligiga qaramasdan, 2015-yilda O'zbekiston YIM 8 foizga oshdi. Mazkur holat Prezident Islom Karimov islohotlari strategiyasining o'ta samaradorligini namoyish etib, jahon inqirozi sinovidan muvaffaqiyatli o'tganligini ko'rsatadi. Yana shunisi muhimki, O'zbekiston dunyoning boshqa mamlakatlaridan farqli ravishda makroiqtisodiy barqarorlikni qat'iy budget intizomi, konservativ pul-kredit siyosati va tashqi o'zlashtirma mas'uliyatli siyosat hisobiga izchillik bilan ta'minlab bormoqda.

TOM MORAN,
«Zeppelin International» kompaniyasi prezidenti,
AQSH

Dunyo amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi jamiyat taraqqiyoti muvaffaqiyati va rivojlanishiga bog'liq. Komil ishonch ila aytish mumkinki, ta'lim jarayonining uzluksiz va izchilligi xarakterli xususiyati bilan ajralib turuvchi ta'lim va kadrlar tayyorlashning o'zbek modeli o'zining samaradorligini isbotladi.

O'zbekiston ta'lim va o'z aholisining bilim darajasini ko'tarish sektori rivoji uchun mamlakat YIMdan 10–12 foiz miqdorida mablag' ajratayotganligining o'ziyoq Prezident Islom Karimov yosh avlodning kelajagiga naqadar katta umid bog'layotganligidan darak beradi.

Binobarin, O'zbekiston savodxonlik darajasi 96 foizni tashkil etuvchi aholisi bilan dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari qatorida turishga imkon beradi.

Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimovning dono rahnamoligi ostida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va yangi standartlarni joriy etish O'zbekistonning istiqbolida ijobiy aks etadi.

RONALD STEFEN DELIYA,
«Amcor» kompaniyasining boshqaruvchi direktori,
Avstraliya

Dunyo hamjamiyati haligacha moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bilan kurashayotgan bir paytda, O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari o'sishda davom etmoqda. O'zbekistonning barqaror va muvaffaqiyatli iqtisodiy taraqqiyotida men, birinchi navbatda, respublika Prezidenti Islom Karimovning ulkan xizmatlarini ko'raman. U kishining uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati va bexato ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi sharofati bilan bugun O'zbekistonda tinchlik, osoyishtalik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlik hukm surmoqda.

Ishonch bilan ayta olamanki, mamlakat Prezidenti tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ustuvorligi doirasidagi O'zbekistonda davom etayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari yaqin fursatlarda qo'yilgan maqsadlar – dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlari safiga qo'shilish va kelajakda mamlakatning kelgusi taraqqiyotini ta'minlashga erishishning mustahkam poydevori bo'ladi.

ALI ABDULLA MUBORAK AL-MAZRUIY,
«Buruj» kompaniyalari guruhi
departamenti boshlig'i,
BAA

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyat barqarorligini

qo'llab-quvvatlash, aholi turmushi sifat darajasini yuksaltirish va ijtimoiy tomondan ta'minlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqarkanman, mustaqillik yillarida mamlakatda olib borilgan keng ko'lamli islohotlarning natijalaridan hayratga tushdim. Shu davr ichida mamlakatingiz iqtisodiyoti qariyb 6 barobarga oshdi. Shubhasiz, bunday muvaffaqiyatlarga erishish davlat rahbarining maqsadga yo'naltirilgan va chuqur o'ylangan siyosatining natijasidir.

**CHAK NETTLSHIP,
«WapackLabs» kompaniyasining biznesni
rivojlantirish bo'yicha direktori,
AQSH**

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasidan O'zbekiston hukumati iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan bir qatorda, axborot texnologiyalar sohasi rivojiga ham katta ahamiyat qaratilayotgani ma'lum bo'ldi. Mamlakatdagi xalqaro universitetlar va yuqori texnologiyalarning innovatsion markazlari talabalar shaharchalari sori mamlakat ichida ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish uchun to'g'ridan to'g'ri imkoniyatlar yaratadi, axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni takomillashtirishning katalizatori bo'lib xizmat qiladi.

Shak-shubhasiz, Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan joriy etilgan O'zbekistonda «elektron hukumat» tizimining tezkor amalga oshirilishi respublikada strategik ustunlikka imkon tug'diradi, barcha jarayonlarning samaradorligi va muvofiqligini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va ular asosida O'zbekiston kompaniyalari va korxonalarida axborot tizimini yaratish strategik maqsadlarga erishish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

AKIXIKO TAMURA,
«Komatsu» kompaniyasi xorij bozorlari
departamentining bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim. O'zbekiston mustaqillik yillarida kuchli va balanslashtirilgan iqtisodiyot, siyosiy va ijtimoiy tizim yaratishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Qo'shni mamlakatlar birlamchi xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishni ko'zlayotgan bir paytda, O'zbekistonda allaqachon yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, qishloq xo'jaligi texnikasi, elektrotexnik mahsulotlar, qolaversa, boshqa turdagi yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Shu jihatdan ta'kidlash lozimki, O'zbekiston iqtisodiyoti mintaqadagi eng diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotdir.

Ishonamizki, Prezident Islom Karimov tomonidan qo'yilgan 2030-yilgacha mamlakat YIMda sanoat ulushining 40 foizga olib chiqilishi masalasi hukumatimizning aniq maqsadlarni belgilab olganligi va uzoqni ko'ra bilishini namoyish etadi. Ishonchim komilki, iqtisodiyotning bunday tinimsiz sur'atda rivojlanib borishi sharofati bilan barcha qo'yilgan maqsadli vazifalarga oldindan erishiladi.

KANG XYUK JUN,
«Nambuk Electric» kompaniyasi vitse-prezidenti,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimovning Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi 2015-yil yakunlari bo'yicha so'zlagan ma'ruzalarini diqqat bilan o'rganib chiqdim.

Tan olish kerakki, Islom Karimov avvalboshdanoq global iqtisodiyotdagi inqirozga qaramasdan, bugun mamlakatda barqaror yuqori makroiqtisodiy natijalarga erishishga imkon

berayotgan samarali iqtisodiy strategiyani ishlab chiqqan va vazifalarni uzoq muddatli istiqbolga muvofiqlashtirib aniq-tiniq ifodalab bergan. Iqtisodiyotni kuchaytirish bo'yicha uzoq yillar davomida qo'llab kelinayotgan chora-tadbirlar davlat budjetiga ta'sir qilmay, mamlakatni qarzdorlik chohiga tortib ketmayotganligi ham e'tiborga loyiq.

Darhaqiqat, Prezident Islom Karimov o'z ma'ruzasida ta'kidlaganidek, bugungi kunda tashqi qarz darajasi YIMga nisbatan 18,5 foizdan oshgani yo'q va bunday ko'rsatkich katta tahsinga loyiqdir.

**KATSUXIRO UKISU,
«IHI Star Machinery Corporation»
kompaniyasining xorijiy savdo va biznes
rivoji departamenti menejeri,
Yaponiya**

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi mazmunini diqqat bilan o'rganib chiqib, O'zbekiston mustaqillik yillarida o'z iqtisodiyoti tuzilmasini tubdan o'zgartirganligi, iqtisodiyotning kelgusida muvaffaqiyatli tarzda o'sishiga asos bo'lgan muhim islohotlar o'tkazganligiga ishonch hosil qildik. Zero, erishilgan yutuqlarda Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, o'zining yuqori samaradorligini namoyish etmish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga dosh bera olgan strategik islohotlarning roli g'oyat muhimdir.

O'zbekiston iqtisodiyoti va sanoati diversifikatsiyasining darajasini alohida ta'kidlab o'tishni istardim. Markaziy Osiyo hududining boshqa davlatlarida tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha ishlar endi boshlanayotgan bir paytda, O'zbekistonda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarilib, bu jarayon yangi bosqichga o'tdi. Ishonamizki, yangi texnologiyalardan foydalangan holda yuqori sifatli mahsulotlar

ishlab chiqarishga tayanish, so'zsiz, sanoat tarmoqlarining raqobatdoshligi ko'tarilishini, uning bardavom taraqqiyotini ta'minlaydi.

FOREST LIM,
«GS Engineering&Construction» kompaniyasining
Bosh ijrochi direktori,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimovning yaqindagi ma'ruzasi bilan g'oyat diqqat-la tanishib chiqdim.

Mamlakatning sarmoyaviy jozibadorligi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiluvchi iqtisodiyot sektorlarini isloh qilish bo'yicha turli dasturlarning izchil amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston barqaror taraqqiyotga erishmoqda. Shu o'rinda ijobiy biznes-sharoit va xorijiy investorlarning O'zbekistonga qiziqishlari o'sib borayotganligidan guvohlik beruvchi jami 506 ta mol-mulk komplekslari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilganligi doirasidagi xususiylashtirish dasturini ta'kidlab o'tishni istardim.

Bundan tashqari, asosiy xomashyo – dastlabki ishlov berish – sanoat mahsulotlari uchun materiallar – tovarlarni ishlab chiqarish uchun tayyor mahsulotlar modeli asosida xomashyolarni qayta ishlash bo'yicha yangi dastur ham jiddiy e'tiborga loyiq. Ushbu strategik masalalarning amalga oshirilishi o'zbek iqtisodiyotining yangi cho'qqilarga chiqishida muhim rol o'ynashiga ishonaman.

XARMANDER SINGX MATHARU,
«Mathary Fertilizers&Chemicals»
korporatsiyasi direktori,
Hindiston

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, O'zbekistonda ro'y berayotgan ijtimoiy-

iqtisodiy jarayonlarning jadal rivojiga to'xtalib o'tishni istardim.

Bu uzoq yillar mobaynida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini namoyish etishga imkon tug'dirgan iqtisodiy taraqqiyotning «o'zbek modeli» to'g'ri va asosli ekanligidan darak beradi.

Shubhasiz, muvaffaqiyatlar zahirida sanoat, infratuzilmalar modernizatsiyasining kompleks dasturlari, iqtisodiyotda chuqur strukturaviy o'zgarishlarning amalga oshirishini ko'zda tutuvchi Prezident Islom Karimovning uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati yotibdi.

O'z navbatida, respublikada investitsiyalari hajmi ko'payishiga nisbatan xorijiy investorlarning ishonchini uyg'otuvchi tadbirkorlikning huquq va manfaatlarini ishonchli himoyalashni ta'minlash bo'yicha Prezident Islom Karimovning islohotlar dasturi alohida e'tiborga loyiqdir.

YASUYUKI SUDO,
«Mitsubishi Fuso Truck & Bus Corporation»
kompaniyasining Osiyo mamlakatlari bo'yicha
marketing bo'limi direktori,
Yaponiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mazmunli ma'ruzasi bilan tanishib chiqdim. Mamlakatingiz milliy iqtisodiy taraqqiyotida talay muvaffaqiyatlarga erishganidan xabardor bo'lib, Islom Karimov bayon qilgan O'zbekistonning kelgusi iqtisodiy rivojlanishi va modernizatsiyasi dasturidan chuqur hayratga tushdim.

Qolaversa, korporativ boshqaruv tizimida tamoyillar va yondashuvlarning tubdan o'zgartirilishi bo'yicha 2015-yili O'zbekistonda bajarilgan ulkan ishlar haqida to'lato'kis ma'lumot oldim. Ishonchim komilki, korporativ boshqaruvning takomillasuvi davlat mulkiga ega korxonalar

faoliyati oshkoraligi, samaradorlikning oshishi, ularning tashqi raqobatdoshlik va O'zbekiston iqtisodiyotida mustahkamlanishining ta'minlanishi bilan muvofiqlashadi.

KUNIXARU SUKADA,
«Inpex Corporation» kompaniyasining
rejalashtirish va muvofiqlashtirish
departamenti bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi yaqin yillarda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining muhim jihatlari bilan tanishishga imkon yaratdi. Mamlakatingizning hududda yetakchiligi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, sanoat diversifikatsiyasi hamda aholining o'sishi hisobiga tobora ochiq-oydin bo'lib bormoqda. Ishonamanki, Prezident Islom Karimovning chuqur o'ylangan va maqsadga yo'naltirilgan islohotlari O'zbekistonning kelgusidagi iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro obro'sini ta'minlaydi.

Shu kunlarda, tomir otib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ko'plab kompaniyalar xorijiy loyihalardan yuz o'girishda davom etishmoqda. Shunisi hayratlanarliki, shunday bir vaziyatda O'zbekiston asta-sekinlik bilan mamlakatda xorijiy sarmoyalarning oshishiga erishmoqda. Bu, o'z navbatida, xorijiy investorlarning mamlakatning ulkan imkoniyatlari, barqarorligiga bo'lgan ishonchidan darak beradi.

N. NAREYN,
«Innocepta Services d'Consultante»
kompaniyasi direktori,
Hindiston

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasida qayd etilgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarini himoya qilish

bo'yicha chora-tadbirlar u kishining shaxsan mazkur sohaga jiddiy e'tibor berishidan darak beradi.

Davlat organlari va tadbirkorlik faoliyati o'rtasida teskari aloqa mexanizmining kiritilishi noyob qadam hisoblanadi va shak-shubhasiz, iqtisodiyotda xususiy sektorning ahamiyati va ulushining oshishiga xizmat qiladi.

Jahon banki kabi katta obro'li tashkilotlarning e'tirofi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning to'g'riligi va samaradorligini isbotlaydi. Bor-yo'g'i bir yil ichida O'zbekiston «biznes yuritish», «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» singari reytinglarda sezilarli darajada oldinga siljiganligidan chin dilimdan quvondim. Bu – O'zbekistonning strategik islohotlari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sinovida o'zining yuqori samarasini namoyon etib, unga bardosh bera olganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

NORAINI OTMAN,
Penang viloyati Malayya savdo palatasining
vitse-prezidenti,
Malayziya

2015-yilda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti yakunlari bayon qilingan hamda 2016-yil va kelasi yillarga mo'ljallangan reja va masalalar aks etgan Prezident Islom Karimovning ma'ruzalari bilan kamoli diqqat-la tanishib chiqdim.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, jumladan, Jahon banki reytingida O'zbekistonda savdo muhiti yaxshilanishining aks etgani alohida tahsinga loyiqdir. Bu, birinchi galda, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va O'zbekiston xalqining farovonlik darajasi ko'tarilishiga yo'naltirilgan mamlakat hukumatining maqsadli va samarador faoliyatidan yana bir bora guvohlik beradi.

ALEKS MISHENKO,
«KAMEKO» kompaniyasi vakili,
AQSH

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, sanoat korxonalarini texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalash, bundan tashqari, korxonalarga zamon talablariga javob beradigan texnologiya va jihozlarni olib kirishni ta'minlovchi maxsus agentlik yaratish bo'yicha rejalashtirilgan islohotlardan behad quvondim.

Bunday dasturlarni amalga oshirish mehnat unumdorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hamda xizmatlarning raqobatdoshligini ko'tarish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratadi. Biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmalarining kelgusi takomillashuvi, chunonchi, biznes faoliyatini amalga oshirishni soddalashtirish va yengillashtirish tamoyillari tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkdorlikning rivoji uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sirasini aytganda, Prezident Islom Karimov ma'ruzasining tahlili 2016-yilda jahon iqtisodiyotining pasayib borayotganligi sharoitida dolzarb masalalar birinchi o'ringa qo'yilganligi haqidagi xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Sarmoyalarning ko'plab to'planishini kuchaytirish, mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalanish, korxonalarning boshqaruv sifatini yaxshilash, transport infratuzilmalarini takomillash-tirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim jihatlarni tanlash alohida ahamiyatga ega va, shubhasiz, O'zbekiston iqtisodiyotining kelgusi rivojida olg'a bostiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

MIXAEL SHLEGER,
«Zoenle Industrial Solushens»
kompaniyasining ijrochi direktori,
GFR

Prezident Islom Karimovning nutqini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim va davlat rahbarining ma'ruzasida keltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlari islohotlarning tutgan yo'li to'g'riligidan yaqqol guvohlik beradi, deb hisoblayman.

Shunisi diqqatga sazovorki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi dunyoning ko'plab mamlakatlariga hali-hamon salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi kuzatilayotgan bir paytda, O'zbekiston YIMning yillik oshishi 8 foiz darajada saqlanmoqda.

Prezident Islom Karimov alohida ta'kidlagan o'ta muhim jihat – bu O'zbekiston korxonalariga korporativ boshqaruvning zamonaviy tizimini kiritish masalasi hamda turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash va hurmatga loyiq aksiyadorlik jamiyatlarining yetakchi xodim va mutaxassislarini tayyorlash hamda ularning malakalarini oshirish tizimi asosida tashkilotlar uchun korporativ boshqaruvning maxsus ilmiy-ta'lim markazini yaratish to'g'risidagi qarordir.

KLAUS POTTXOFF,
«Tissen Krupp AG» kompaniyasining xalqaro
ishlar bo'yicha direktori,
GFR

Prezident Islom Karimovning ma'ruzalari bilan tanishib, kuchli va balanslashtirilgan iqtisodiyot qurishda qilingan ishlarning naqadar keng ko'lamli ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Prezident tomonidan bayon etilgan sanoat, infratuzilma, xizmatlar, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy soha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash

kabi muhim sohalarni qamrab oluvchi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji va modernizatsiyasi dasturi meni chuqur hayajonga soldi.

Prezident tomonidan 2030-yilgacha qo'yilgan maqsadli vazifalarga ham alohida e'tibor qaratdim. Ishonchim komilki, o'zbek iqtisodiyotining hozirgi jadal sur'atda o'sishi orqali 2030-yilga borib YIM hajmini ikki barobar ko'paytirish maqsadiga fursatdan oldin erishiladi. Sanoatni diversifikatsiyalash bo'yicha qo'llaniladigan chora-tadbirlar, shubhasiz, 2030-yilga borib uning YIMdagi ulushining 40 foizga yetishiga olib keladi.

Yana shuni ta'kidlab o'tishni istardimki, mamlakatingizga zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, qolaversa, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilayotgan alohida e'tibor kelgusi taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

PITER SEMLER,
«Capitol Intel Group» kompaniyasi direktori,
AQSH

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini sinchiklab o'rganib, mamlakat hukumati tomonidan ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga jalb qilingan sohalar – agrosanoat komplekslari rivojlanishi masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganligiga amin bo'ldim.

Kuzatilayotgan o'zgarishlar, jumladan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kuchayishi, qishloq xo'jaligiga ajratilayotgan xarajatlarning oshishi, qabul qilinayotgan dasturlar va loyihalarning amalga oshirilishi ushbu sohada mamlakat agrosanoat kompleksining izchil va barqaror rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Sohalarning kompleks va yaxlit rivojlanishi, texnik va texnologik modernizatsiya, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi qishloq xo'jaligi kompleksining kelgusi taraqqiyoti va mamlakatingizning oziq-ovqat xavfsizligi ta'minotiga xizmat qiladi.

PITER JON KOULMAN,
«Woodside Petroleum Limited» kompaniyasining
boshqaruvchi direktori,
Avstraliya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasida keltirilgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar bilan tanishib chiqdim va aholining demografik tuzilishini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi bo'yicha mamlakat hukumatining maqsadlaridan hayratga tushdim. Respublikada bozor munosabatlarining faol joriy etilishi, ijtimoiy himoya borasidagi chora-tadbirlar, aholi turmush tarzining darajasi va sifatining kelgusi rivoji bilan amalga oshiriladi. Shu o'rinda davlat budjetining 60 foizga yaqini ijtimoiy sohalarga yo'naltirilayotganligini alohida qayd etish lozim.

Bu chora-tadbirlar bozor iqtisodining shakllanishida muhim rol o'ynadi va daromad darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanishining oldini oldi. Daromadlar bo'yicha tabaqalanish bilan xarakterlanuvchi xalqaro ko'rsatkich – Jini indeksi O'zbekistonda 2000-yildagi 0,390 ga nisbatan 2015-yili 0,280 ni tashkil etganligi va darajasi bo'yicha iqtisodiy jihatdan rivojlangan hamda rivojlanayotgan dunyoning ko'plab mamlakatlari darajasidan sezilarli past ekanligi buning yorqin misoli bo'lishi mumkin.

ALEKSANDR ARNOLD,
«SAP Germaniya AG»
kompaniyasi katta menejeri,
GFR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzalari bilan tanishib chiqib, shuni qayd etib o'tishni

istardimki, ma'ruza davlatning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan istiqboldagi vazifalarning keng ko'lamli rejasi hisoblanadi.

Meni, ayniqsa, mulkchilik strukturalaridagi tub o'zgarishlar, iqtisodda davlat aralashuvi kamaytirilishi, korporativ boshqaruv tamoyillari va yondashuvlarining o'zgartirilishi bo'yicha tizimli chora-tadbirlar komplekslarining amalga oshirilishi yuzasidan qilinayotgan ishlar hayratga soldi.

Kichik biznesning mamlakat YIMdagi ulushi 2000-yildagi 31 foizdan hozirgi kundagi 57 foizga yoki 1,8 barobarga o'sganligi O'zbekiston hukumati bu yo'nalish taraqqiyotini faol rag'batlantirayotganligi va qo'llab-quvvatlayotganligini ko'rsatadi. Shubhasiz, mazkur chora-tadbirlar yaqin kelajakda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi turtki bo'ladi.

Ma'ruzada iqtisod tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, qolaversa, «elektron hukumat» tizimini yaratishni tezlashtirishga alohida e'tibor berilgan. Global iqtisodiyotda mazkur sohaning o'sib borayotgan roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar katta tahsinga sazovorligini ta'kidlab o'tishni istardim.

TOMAS FAYERSTON,
«Baker&McKenzie» kompaniyasi hamkori,
AQSH

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqqan holda iqtisodiyot diversifikatsiyasi, uning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarni yuqori baholarga loyiq, deb bilaman. Global inqiroz sharoitlarida xalqaro kompaniyalarning mamlakatning imkoniyatlari va barqarorligiga bo'lgan ishonchini ko'rsatib

turuvchi O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishining har yili o'sayotganligi quvonarlidir.

Ishonchim komilki, biznes yuritish jarayonlarini soddalashtirish va yengillashtirish, kafolatlarni kuchaytirish, davlat organlari bilan o'zaro munosabatda tadbirkorlarning huquqlari ustuvorligi tamoyili bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar turli sohalarga xorijiy investitsiyalarning yanada ko'proq kirib kelishiga muvofiqlashadi, mamlakat iqtisodiyoti va farovonligi kelgusida mustahkamlanishini ta'minlaydi.

MIXAEL POPP,
«Bionorika Se» kompaniyasining
boshqarma raisi,
GFR

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, shuni qayd etishni istardimki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar siyosati doirasida aynan aholiga katta e'tibor qaratilmoqda. Aholini qo'llab-quvvatlash ijtimoiy tizimi nechog'liq muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilayotgani yaqqol ko'rinib turibdi. Buning tasdig'i sifatida har yili bajarilayotgan tegishli davlat dasturlarini keltirib o'tish mumkin.

Bu yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan ko'zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha dasturli chora-tadbirlar, jumladan, oila, onalar va bolalarni himoya qilish tizimini kuchaytirish bo'yicha, perinatal va skrining-markazlarning moddiy-texnik baza hamda kadrlar salohiyatini mustahkamlash, yosh onalar va bolalarga g'amxo'rlik qilishning sifati va darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar joriy etilishiga katta e'tibor qaratiladi.

Bunday dasturlar mamlakat taraqqiyoti istiqboliga qaratilganligini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, ularni joriy etish qo'shimcha moliyaviy manbalarni talab qilishi va ijtimoiy ehtiyojlar uchun har bir davlat ham bunday mablag'larni ajratavermasligini ta'kidlab o'tish lozim.

SO KIN I,
«Jaal Bridge&International» kompaniyasi prezidenti,
Koreyaning O'zbekistondagi birinchi elchisi,
Koreya Respublikasi

O'zbek iqtisodiyoti kelgusi rivojining ustuvor jihatlari belgilangan Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan g'oyat qiziqish-la tanishib chiqdim.

Fikrimcha, taraqqiyotning «o'zbek modeli»ning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi rivojiga katta e'tibor bermoqda. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar, asosan, ishlab chiqarish va infratuzilmaga diqqat-e'tibor qaratayotgan bir paytda, O'zbekiston dadillik bilan sog'liqni saqlash tizimini xalqaro darajaga olib chiqishga harakat qilmoqda.

Ma'ruzada ko'rsatilganidek, hukumat chora-tadbirlari yo'nalishlarning keng doirasi: oila, onalar va bolalarni himoya qilish, moddiy-texnik baza, kadrlar salohiyati tizimini mustahkamlashni qamrab olmoqda. Shunisi e'tiborga loyiqki, sog'liqni saqlashning bepul tizimi, aholiga moliyaviy og'irlik yuklamasdan amalga oshirilayotgan bu ishlarni, hatto ba'zi rivojlangan mamlakatlarda ham joriy etishning imkoni yo'q.

O'zbekiston o'lim miqdorini kamaytirish bo'yicha BMTning mingyillik taraqqiyot maqsadlariga to'la-to'kis erishganligi diqqatga sazovordir. Bu ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning darajasi takomillashuvida sezilarli siljishlar

bo'layotganligini ko'rsatadi. Bu borada davlat rahbarining tashabbusi bilan qabul qilingan «Sog'lom ona va bola yili» dasturi sog'liqni saqlash sohasidagi keng ko'lamli ishlarning davom etishiga muvofiqdir.

BALDIV SINGX,
«EUROASIA TRAVELS» kompaniyasi direktori,
Hindiston

2015-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yakunlari keltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'z ma'ruzasida aytgan ulkan ko'rsatkichlardan qoyil qoldim.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, qolaversa, amalga oshirilayotgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish keng qamrovli dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar menda alohida qiziqish uyg'otdi.

Ishonchim komilki, davlat aktivlarini xorij investorlariga nolli qiymatda sotish, shubhasiz, xorijiy investitsiyalarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishlari oshishi uchun navbatdagi rag'bat bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashishga javobgarlikni ko'zda tutuvchi qator me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishini aytgan mavridida bajarilgan ish bo'ldi, deb hisoblayman.

Sirasini aytganda, shuni alohida ta'kidlab o'tishni xohlardimki, O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tezkor rivoji O'zbekiston uchun uzoq yillar mobaynida iqtisodiyotning barqaror ko'tarilib borishini namoyon etishga imkon beradigan taraqqiyotning «o'zbek modeli» naqadar samarali ekanligidan yana bir bor dalolat bermoqda.

ATSUSHI XIGASHI,
«Panasonic Corporation» kompaniyasi hukumat
tashkilotlari bilan aloqalar
departamentining bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasida bayon etilgan O'zbekistonning erishilgan yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, keng ko'lamli modernizatsiyaga yo'naltirilgan davlat dasturlari, iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash, ijtimoiy, yo'l-transport va kommunikatsion infratuzilmaning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratdim.

Prezident Islom Karimovning shaxsan o'zlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturlarning tashabbuskori bo'layotganiga hayron qoldim. Mustaqillik yillarida u kishining oqilona rahbarligi ostida mamlakatingiz muhim kompleksli tadbirlar va islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkon tug'dirgan iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka erishdi.

Rivojlanayotgan va rivojlangan ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Yaponiyada davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatlari kuzatilayotgan bir paytda, O'zbekiston zamonaviy shart-sharoitlarda nihoyatda qiyin masala hisoblanmish iqtisodiyotning barqaror o'sib borishini ta'minlamoqda.

SANCHIT SHARMA,
«AIMIL» kompaniyasi ijrochi direktori,
Hindiston

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, kuchli va balanslashgan iqtisod yaratishda qanchalik

keng ko'lamli ishlar qilinganligiga yana bir bor amin bo'ldim. Prezident tomonidan bayon etilgan qariyb barcha sohalarda uzoq muddatli istiqbolga erishishdagi aniq maqsad va vazifalarni belgilab beruvchi O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti va modernizatsiyasi dasturi menda ijobiy taassurot qoldirdi.

O'zbekiston hukumati tomonidan belgilangan 2030-yilga kelib YIM hajmini ikki baravar oshirish va sanoatning undagi ulushini 40 foizga olib chiqish bo'yicha maqsadli vazifalarga alohida e'tibor qaratdim.

Ishonamanki, iqtisodiyotning ushbu jadal o'sib borishini saqlab qolish bilan O'zbekistonda mamlakat Prezidenti tomonidan belgilangan maqsadli vazifalar bajarilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

KENICHI MATSUMOTO,
Tibbiy asbob-uskunalar sohasida tashqi-texnik
yordam ko'rsatish bo'yicha Yaponiya tashkiloti
(OMETA) boshlig'i,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzalari bilan tanishib chiqib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlarning samaradorligiga yana bir bor ishonch hosil qildim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi va aholi turmush tarzining darajasi va sifatini kelgusida yanada ko'tarish borasida mamlakat hukumatining g'ayratidan bag'oyat ta'sirlandim.

Iqtisodiy infratuzilmalar rivojida hukumatning faol ishlari aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha foydali va maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar o'tkazilishi bilan amalga oshiriladi. Buning yorqin misoli sifatida davlat budjeti barcha xarajatlarining 60 foizi ijtimoiy sohalarga

yo'naltirilayotganligini keltirib o'tish mumkin. O'ylaymanki, mazkur chora-tadbirlar milliy iqtisodiyot taraqqiyotida muhim rol o'ynadi va daromad darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalashuvini bartaraf qildi.

O'zbekistonga qilgan tashriflarim mobaynida mamlakatingizda uzluksiz yuz berayotgan keng qamrovli o'zgarishlardan lol qoldim.

Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimov rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va modernizatsiyasi dasturlari, jumladan, 2030-yilgacha mo'ljallangan maqsadli vazifalar o'zbek xalqi farovonligi va O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlaydi.

JEY XYUK SHIM,
«Taekwang Industrial» kompaniyasi bosh
ijrochi direktori,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasini o'rganib chiqib, iqtisodiy islohotlarda O'zbekiston qisqa muddatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgani meni hayratda qoldirdi.

O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari izchillik bilan rivojlanib borishiga zamin yaratayotgan mamlakatning investitsiya sohasidagi siyosati alohida e'tirofga sazovor. Ma'ruzada qayd etilganidek, investitsiyaning 67 foizdan ko'prog'i sanoat qurilishiga yo'naltirildi, natijada 2015-yilda O'zbekistonda qator yuqori texnologiyali loyihalar amalga oshirildi.

Nazarimda, zamonaviy obyektlar qurilishiga ilg'or texnologiyalarning jalb etilishi iqtisodda barqaror sur'atlarga erishish, sanoatni texnologik rivojlantirish hamda ushbu sohada yangi tarmoqlarni o'zlashtirish imkonini yaratadi.

O'ylaymanki, O'zbekiston yuritayotgan mazkur siyosat yaqin kelajakda mamlakatni dunyoning iqtisodiy rivojlangan davlatlari bilan bir qatorda turishini ta'minlaydi.

DOMINIK VERLEY,
Savdo-sanoat palatasi menejeri,
Belgiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasidan O'zbekistonning mustaqillik yillarida hamda istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga oid ko'plab foydali ma'lumotlar oldim.

Ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotida hali-hanuz davom etayotgan iqtisodiy inqirozga qaramay, o'tgan yili iqtisodiy rivojlanish uchun mavjud zaxiralarning izchillik bilan safarbar etilishi, mamlakatingizda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Fikrimcha, bunga real iqtisodiy sektordagi korxonalarning moliyaviy darajasini yuksaltirish, raqobatbardoshligini oshirish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasida ularni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish orqali erishildi.

Aminmanki, Prezident Islom Karimovning alohida e'tibori hamda uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati tufayli O'zbekiston yaqin kelajakda o'zining bosh maqsadi – jahondagi iqtisodiyoti har tomonlama rivojlanib borayotgan hamda aholisining turmush darajasi yaxshilanib borayotgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishga erishadi.

RAKESH JUNEJA,
«ELCOM GROUP» kompaniyasi katta
vitse-prezidenti,
Hindiston

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqar ekanman, uning

mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishdagi dono hamda chuqur o'ylangan siyosat yuritishiga yana bir karra amin bo'ldim.

Uning tashabbusi bilan tashkil etilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlariga joriy qilish haqidagi «elektron hukumat» tizimining ishlab chiqilishi alohida e'tiborga molik.

Bugungi globallashuv davrida axborot texnologiyalarini rivojlantirishda mazkur tizimning naqadar muhim va to'g'ri bo'lganligini ushbu sohada faoliyat yurituvchi kompaniya vakili sifatida alohida e'tirof etishni istardim.

Quvonch bilan ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda AKT sohasi mamlakat YIMning 2 foizini tashkil etmoqda. Kelgusida mazkur sohani jadallik bilan taraqqiy ettirish uchun sizlarda barcha imkoniyat va resurslar yetarli.

Aminmanki, ayni paytda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqarish, dasturiy ta'minot bilan ta'minlash hamda shu asosda interaktiv xizmatlarning keng spektrini taqdim etishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmog'i O'zbekistonning global iqtisodiyotdagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, uning tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

BE KYUNG KIM,
«Gn1 Co» kompaniyasi prezidenti,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimov ma'ruzasi bilan tanishib chiqar ekanman, unda muvaffaqiyatli hamkorlik sifatida o'zbek-janubiy koreya loyihalari tez-tez yodga olingani menga ulkan mamnuniyat bag'ishladi.

Xususan, Surg'il loyihasi, Namangandagi tajriba fotoelektr stansiyasi, «Inha» universiteti hamda elektron hukumat

singari loyihalarning o'zi ham O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar nechog'lik yaqin ekanligini ko'rsatib turibdi.

Darhaqiqat, O'zbekiston yuksak taraqqiyotga erishayotgani bois, iqtisodiy istiqboli porloq mamlakat sifatida xorijiy sarmoyadorlarning diqqatini tortmoqda.

Ishonchim komilki, ma'ruzada belgilab berilgan maqsadli yo'nalishlar, shuningdek, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishdagi davlat dasturlari janubiy koreyalik ish-bilarmon doiralarning e'tiborini tortib, o'zbekistonlik hamkorlari bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashda va yangi sohalarda ham hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TAKUYA ICHIXASHI,
«Toyota Tsusho Corporation» kompaniyasi
katta menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasi bilan tanishib chiqish imkoniga ega bo'lganimdan juda mamnunman. O'zbekiston erishayotgan yutuqlar meni hayratga soldi va ishonchim komilki, Prezident tomonidan 2030-yilgacha belgilab berilgan vazifalar o'z vaqtida hamda sifatli bajariladi.

O'zbekistonda iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilgan ishlarni alohida ta'kidlashni istardim. Sanoat sohasiga ilg'or energiya texnologiyalarining joriy etilishi O'zbekiston mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirib, o'z navbatida, mahsulot tannarxining pasayishiga imkon yaratadi. E'tiborimni tortgan yana bir jihat, mamlakatingizda paxta yetishtirish va uni qayta ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish, inf-ratuzilma loyihalarining izchil amalga oshirilayotgani bo'ldi.

Yuqori sifatli mahsulotlarni tayyorlash hamda ularning ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishda yapon kompaniyalarining faol ishtirokiga umid qilib qolaman.

SUNG IN XON,
«Leveer» kompaniyasi bosh ijrochi direktori,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasi bilan tanishib chiqib, shuni aytishim mumkinki, O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, jahon iqtisodiyotida inqiroz davom etib, ko'plab davlatlar o'z budjetini qisqartirishga majbur bo'layotgan bir paytda O'zbekiston iqtisodiyotiga 17,3 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritilishi fikrimning isbotidir. Bu borada meni hayratga solgan yana bir jihat, mazkur mablag'ning katta qismi mamlakatning ichki manbalari hisobiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa O'zbekistonning barqaror iqtisodiyotiga nisbatan mustahkam ishonch uyg'otadi.

Ikkinchidan, ma'ruzada ta'kidlanganidek, 2016-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan, qiymati 5 milliard dollarga teng 164 ta yirik investitsiyaviy loyihalardan hisoblanmish quvvati 450 MVt ga teng «Tollimarjon» IES hamda quvvati 150 MVt ga teng «Angren» IESning barpo etilishi bu yo'nalishdagi ishlar samarali yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

KAZUXIKO UCHIDA,
«Japan Tobacco» kompaniya vitse-prezidenti,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining

iqtisodiy tuzilmasini tubdan o'zgartirganligiga va muhim islohotlarni amalga oshirganligiga yana bir bor amin bo'ldim. Bu esa, sohada muhim poydevor bo'lib, uning kelgusidagi taraqqiyotini ta'minlaydi.

Prezident Islom Karimov tomonidan 2030-yilgacha belgilab berilgan maqsadli vazifalar jahon bozoridagi ayni vaziyatni chuqur va teran tushungan holda ishlab chiqilgani bilan diqqatga sazovor. Bu borada iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari hisoblangan sanoat, infratuzilma, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi hamda ijtimoiy sohalarini o'z ichiga olgan O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot va modernizatsiya dasturini alohida ta'kidlash lozim.

Mazkur dasturning amalga oshirilishi kelgusida O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotiga xizmat qilishi, shubhasiz.

KYU XO KIM,
«Nano Wave» kompaniyasi prezidenti,
Koreya Respublikasi

Prezident Islom Karimov ma'ruzasini o'rganish jarayonida o'zim uchun qator yangiliklarni kashf etdim. Misol uchun, bu 2020-yilga qadar paxta xomashyosi yetishtirishni bosqichma-bosqich 350 ming tonnagacha qisqartirishdir.

Nazarimda, ushbu holat O'zbekistonning jahon paxta bozoridagi nufuzi hamda mamlakatning to'qimachilik sohasidagi taraqqiyotiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Muhimi, paxtadan bo'shagan ekin maydonlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilib, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham o'sish kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, eksport hajmining ortishiga ham keng imkoniyat yaratadi.

E'tiborga molik jihat, ekin maydonlarini muvofiqlashtirish hamda ularga zamonaviy agrotexnologiyalarni jalb

etish orqali don-boshqoq ekinlarini yetishtirish hajmini uch martagacha oshirishga erishish mumkin. Bunday yuqori ko'rsatkich esa aholisi o'sib borayotgan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, ichki bozordagi ma'lum ijobiy o'zgarishlarga ham xizmat qilishi, tabiiy.

GEORG TRAMBURG,
«AEG Power Solutions» kompaniyasining
biznesni rivojlantirish bo'yicha direktori,
GFR

Prezident Islom Karimov nutqi bilan tanishgach, O'zbekiston betakror o'lka ekaniga amin bo'ldim.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay, mamlakatingizda makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy o'sishning ta'minlanayotgani buning isbotidir.

Nazarimda, Prezident Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan, o'lkangiz juda boy bo'lgan milliy xomashyolar va mineral resurslarni qayta ishlashni bosqichma-bosqich yuksaltirib borish va shu asosda yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish vazifalarining amalga oshirilishi O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatingizning bugungi taraqqiyot darajasini hisobga olib shuni ishonch bilan ayta olamanki, joriy yilda barcha prognoz ko'rsatkichlari amalga oshiriladi. Ushbu vazifalarni bajarishda investitsiya dasturlarini to'liq ro'yobga chiqarish lozim. Ayni paytda o'lkangizda mazkur dasturlarning muhim omili bo'lgan sanoat va iqtisodiyotni tubdan yangilash kuzatilmoqda.

ELIA TANNURI,
«Consortium International de Haute Technologie»
kompaniyasi raisi,
Fransiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasini batafsil o'rganib chiqib, mamlakatda uzoqni ko'zlangan, chuqur o'ylangan, strategik puxta hamda juda oqilona iqtisodiy siyosat yuritilayotganiga yana bir karra amin bo'ldim.

Fursatdan foydalanib shuni ta'kidlashim kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy muvaffaqiyati va barqaror taraqqiyotida, shuningdek, o'zbek xalqi hayotining sifat darajasi yuksalishini ta'minlashda, eng avvalo, sohaga barcha zarur resurslarni muvaffaqiyatli yo'naltirib, aniq maqsadni belgilab olgan Prezident Islom Karimovning tinimsiz mehnati mujassamdir.

Aniq maqsad va vazifalarning qo'yilgani, ularga erishish yo'lida uzoqni ko'ra bilish hamda ushbu jarayonlarda zarur islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazib borish o'zbekcha taraqqiyot strategiyasining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada yuqorida aytganimdek, aynan tadrijiylik ushbu jarayonlarda barqarorlikni ta'minlab, bugungi o'zgaruvchan jahon iqtisodiyotining keskin burilishlariga moslashish imkonini beradi.

O'zbekiston misolida biz iqtisodiyotga davlat aralashuvining cheklanishiga guvoh bo'ldik. Bu esa, o'z navbatida, sanoatning jadal rivojlanishiga, qolaversa, xususiy sektorlar, xorijiy sarmoyadorlar o'rtasida sog'lom raqobatning rivojlanishiga, natijada ishlab chiqarish quvvatlarining oshishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat xususiy sektorlarining kelgusi faoliyatidagi taraqqiyotini ta'minlamoqda.

O'zbekistonning investitsiyaviy faoliyati ham yuqori e'tiroflarga loyiq. Masalan, o'zlashtirilgan xorijiy sarmoyalar

mamlakat YIMning to'rtidan bir qismini tashkil etmoqda. Aminmanki, mana shu raqamning o'ziyoq iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning samarasidan hamda kelajakda mamlakatingizning gullab-yashnashidan darak beradi.

PETER URBAN,
«Preterm Solushens» kompaniyasi
ijrochi direktori,
GFR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutqini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim.

Ma'ruzada O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida erishgan yutuqlari batafsil yoritilgan. Iqtisodiy taraqqiyotdagi yuksak ko'rsatkichlar mamlakatda uzoqni ko'zlab yuritilayotgan siyosat hamda o'tkazilayotgan muhim islohotlar samarasidir.

Ayni vaqtda Prezident Islom Karimov yana bir yo'nalishni belgilab berdi. Bu bugungi davrda rivojlanishni yangi bosqichga ko'tarishda eng muhim omil hisoblanuvchi ishlab chiqarish va sanoatni kompleks modernizatsiya qilishdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun esa yangi texnologiyalar, bilimlar hamda sarmoyalar talab etiladi.

Ishonchim komilki, mamlakatingizdagi mavjud iqtisodiy va insoniy salohiyat 2030-yilga qadar rejalashtirilgan maqsad – YIM hajmini ikki baravarga oshirishga to'la-to'kis imkon beradi.

FRANSUA MARK,
«ALEX» konsalting kompaniyasi rahbari,
Fransiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasini o'rganib chiqib, shuni ta'kidlashim kerakki, O'zbekistonda xususiy mulk-

chilik, o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga, tadbirkorlarning huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. YIMda kichik biznes ulushining oshishiga erishish hamda kelgusida uni qo'llab-quvvatlab borish, shubhasiz, har qanday mamlakat taraqqiyotida muhim omil sanaladi.

Davlat mulkini xususiylashtirib borish tashabbusi yuksak e'tirofga sazovor. Kam foyda keltirayotgan, eskirgan, samarasiz, shuningdek, ko'p energiya talab qiluvchi korxonalar faoliyatiga barham berish, ma'lum majburiyatlarga muvofiq sarmoyadorlar tomonidan «nol» qiymatli aktivlarning sotilishiga erishish, kelgusida iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda juda muhim omil sanaladi.

Kasb-hunar kollejarini tamomlayotgan yoshlarning o'z biznesini yo'lga qo'yishlari uchun kreditlar bilan ta'minlanayotgani, shuningdek, ijtimoiy soha, xususan, ta'lim tizimiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgani maqtovga arzigulik. O'zbekistonda ta'limga berilayotgan e'tibor UNESCOning bu boradagi talablaridan ikki barobar ortiqdir. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning kelgusidagi faoliyatida barcha jabhalarda olg'a intilishini ta'minlaydi. Ta'limga ajratilayotgan mablag', birinchidan, sarmoyalarning eng oqilona yo'li bo'lib, qolaversa, tadbirkorlikni rivojlantirishning ham mustahkam garovidir. O'zbekiston o'z iqtisodining raqobatbardoshligiga tamal toshini qo'ymoqda.

Ishonchim komilki, O'zbekistonda islohotlarning davom ettirilishi va ularning barcha bosqichlarda to'g'ri amalga oshirilishi Prezident Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan maqsadlarning o'z vaqtida va bekam-u ko'st bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ARUNAS VANAGAS,
«FronDita Biogroup Inc.» kompaniyasi prezidenti,
AQSH

Prezident Islom Karimov ma'ruzasidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti qishloq xo'jaligidagi islohotlarning, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalalarining nechog'lik hal etilishiga bog'liq ekanligini bilib oldim.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning e'tiroficha, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishilgani, respublika qishloq xo'jaligidagi tub o'zgarishlar hamda izchil taraqqiyot tufaylidir.

Qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilishda asosiy urg'u uni zamonaviy, unumdor, jahon talablari va standartlariga javob beradigan maxsus texnika va texnologik uskunalar bilan ta'minlashga qaratildi.

Qayd etish joizki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash, yer uchastkalarini optimallashtirish, fermer xo'jaliklariga foyda va samara keltirish bilan birga, ishlab chiqarish hajmining ortishini ham ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mukammal qilib qayta ishlash o'zining sifati hamda betakror ta'mi bilan ajralib turuvchi O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining yanada kengayishini ta'minlaydi.

KANAME ANJO,
«Urata Corporation» kompaniyasi
katta maslahatchisi,
Yaponiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasi menga O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda uning eng ustuvor yo'nalishlarini batafsil o'rganish imkonini berdi. Mustaqillik

yillarida mamlakatingiz salmoqli yutuqlarga erishdi hamda xalqaro hamjamiyatda o'z mavqeyini yanada mustahkamladi.

Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari hisoblanmish sanoat, infratuzilma, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarni qamrab olgan O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi menda ijobiy taassurot qoldirdi.

Shu bilan birga, sohani tubdan yangilash bo'yicha olib borilgan ishlar, O'zbekistonda davlat mulkiga ega korxonalar faoliyati oshkoraligini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Bu esa mamlakatning hozirgi taraqqiyot bosqichida ular faoliyatining yanada samarali, unumdor bo'lishiga imkon berib, tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Xorijiy sarmoyalar hamda texnologiyalarning jalb qilinishi esa O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan yangilashga xizmat qiladi.

RIKI SUN,
«Kotec» kompaniyasi prezidenti,
Koreya Respublikasi

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ma'ruzasini o'rganib chiqib, shuni aytishim mumkinki, O'zbekiston – to'g'ri yo'lga qo'yilgan iqtisodiy siyosati, sarmoyadorlik muhiti va barqaror o'sib borayotgan bozori tufayli xorijiy biznes uchun keng imkoniyatlar taqdim etayotgan mamlakatdir.

O'zbekiston hukumatining biznesni qo'llab-quvvatlash orqali YIMni 7,8 foizga, sanoatni 8,2 foizga ko'tarishga qaratilgan 2016-yilga belgilangan rejasi tadbirkorlikning barcha turlarini qo'llab-quvvatlash bilan birga, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznesni rivojlantirish haqida so'z borar ekan, «Biznes yuritish» reytingida O'zbekiston ko'rsatkichlari salmoqli darajada oshganini alohida ta'kidlashni istardim.

Ma'ruzada qayd etilganidek, O'zbekiston bir yilning ichidayoq reytingda 16 band bo'yicha yuqoriladi. Aminmanki, hukumatingizning biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyasi bundan keyin ham kengayib, mamlakatning iqtisodiy salohiyati yuksalib boraveradi.

XAJIME NISHIXARA,
«Rohto Pharmaceutical» kompaniyasi
global biznes departamenti katta menejeri,
Yaponiya

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'z iqtisodiyotida barqaror va tadrijiy taraqqiyotni namoyon etdi. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbek modeli» mamlakatning gullab-yashnashiga mustahkam zamin bo'ldi va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga xizmat qildi.

Prezident Islom Karimov ma'ruzasidan o'zbek iqtisodiyotini 2030-yilga qadar rivojlantirishning eng muhim vazifalariga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldim. Mamlakatingizning istiqboldagi maqsadlari to'liq amalga oshishiga ishonchim komil. Chunki O'zbekiston nafaqat xomashyoga boy, balki kuchli iqtisodga ham ega o'lkadir.

Shuningdek, davlatingizda aholini muhofaza qilish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini ham alohida ta'kidlashni istardim. Davlat budjeti xarajatlarining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalariga yo'naltirilayotgani meni hayratga soldi. Ushbu ko'rsatkich, shak-shubhasiz, Prezident Islom Karimovning mamlakat aholisi hayot tarzini yuqori darajaga ko'tarish va sifat jihatdan yaxshilashga e'tibor qaratayotganining isbotidir. O'zbekistonning har bir fuqarosi mamlakat ijtimoiy siyosatida olib borilayotgan bunday g'amxo'rlikni qalban his etib, anglab turganiga ishonchim komil.

CHARLZ YASSAIN,
«JMH Group» kompaniyasi vitse-prezidenti,
AQSH

Prezident Islom Karimovning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ma'ruzasi bilan tanishib chiqdim. Nazarimda, davlat rahbarining ushbu nutqdagi fikrlari O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi qatori xorijlik hamkorlar uchun ham juda zarur va muhimdir. Ma'ruza har tomonlama mukammal, vazifalari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, bu, o'z navbatida, mamlakat istiqbolidagi taraqqiyot uchun xizmat qiladi.

Undagi e'tiborga molik muhim masalalardan biri, bu – Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'limiy markazining tashkil etilgani bo'ldi. Respublika korxonalarida korporativ boshqaruvning ilg'or xorij tajribasini qo'llash maqsadida menejerlarning malaka va ko'nikmalarini oshirishga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilib qo'llab-quvvatlanayotgani, rag'batlantirilayotgani O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lishi, shubhasiz.

KRIS JORJ,
«IdeaWaveLabs» kompaniyasi direktori,
Hindiston

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan batafsil tanishib chiqqach, mamlakat fuqarolarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlash hamda ularning yashash darajasini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi keng ko'lamli islohotlar taraqqiyot asosi bo'lmoqda, degan xulosaga keldim.

Bu borada davlat boshqaruvi tizimini liberallashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ijtimoiy institutlar, fuqarolik jamiyatlarini rivojlantirish kabi iqtisodiy va demokratik

islohotlarga asoslangan, Prezident Islom Karimov tomonidan har tomonlama puxta o'ylangan, uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan «O'zbek modeli» va uning mashhur besh tamoyilini alohida ta'kidlashni istardim.

Bugun O'zbekiston milliy iqtisodiyoti taraqqiyotida qo'lga kiritayotgan yutuqlarga barcha mamlakatlar ham erisha olmaydi. Buni nufuzli Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin. Mazkur forum reytingining 2014–2015-yillardagi rivojlanish yakunlari hamda 2016–2017-yillarda iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, O'zbekiston dunyo bo'yicha iqtisodi jadal rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan o'rin oldi.

Mamlakat iqtisodiyotidagi yutuqlar sog'liqni saqlash, ta'lim hamda aholining barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlovchi kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yordam beradi. Ma'ruzadan ma'lum bo'ldiki, O'zbekistonda ta'lim tizimiga har yili sarflanayotgan xarajatlar YIMga nisbatan 10–12 foizni tashkil etmoqda. Bu raqamlar esa UNESCOning tegishli talablari ikki barobar ortig'i bilan bajarilayotganini ko'rsatadi. Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishini, eng avvalo, ta'limga qaratilayotgan e'tibor ta'minlashini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatingizda bu boradagi ishlar maqtovg'a sazovordir.

DAREL KOX,
«Bulox power Pte Ltd» kompaniyasi
boshqaruvchi direktori,
Singapur

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasida bildirilgan O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilish hamda tubdan o'zgartirishga qaratilgan fikrlarni katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim. Mamlakat hukumatining

demografik jarayonlarni hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi menda chuqur taassurot qoldirdi.

Shuningdek, yurtingizdagi korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlar ham e'tiborimni tortdi. Davlat mulkiga ega korxonalar faoliyati oshkoraligi hamda majburiyatlarni kuchaytirish, ular faoliyatining yanada samarali bo'lishiga erishish, tashqi raqobatbardoshlikni yuksaltirish, xorijiy sarmoyalar hamda texnologiyalarni jalb qilish O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan yangilashga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi naqadar oqilona va samarali ekanligi jahon moliyaviy inqirozi paytida sinovdan o'tib, to'la-to'kis isbotlandi. O'zbekistonning hozirgi o'sish sur'atlari hukumatga 2030-yilga qadar YIMni ikki barobarga oshirish vazifalarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi.

ROBERTO KARILLO,
«SkyPower» kompaniyasi vitse-prezidenti,
AQSH

Prezident Islom Karimov ma'ruzasida O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanishni keng joriy etish hamda uni yanada rivojlantirish borasidagi fikrlar e'tiborimni tortdi.

Mamlakatingizda quyosh elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha amalga oshirilgan va rejalashtirilayotgan loyiha-larga oid qimmatli va foydali ma'lumotlarga ega bo'ldim. Ishonch bilan ayta olamanki, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining solishtirma og'irligini kuchaytirish bo'yicha qabul qilingan strategiyani – garchi unda g'oyat ulkan maqsadlar qo'yilgan bo'lsa-da – bimalol amalga oshirish uchun imkoniyatlar yetarli. Bu esa O'zbekistonning barqaror

rivojlanishini ta'minlash bilan birga, mamlakatdagi ekologik vaziyatni ham yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekistonda aholi orasida energiyani tejash va undan samarali hamda oqilona foydalanishni ommaviy targ'ib qilish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotganini qayd etmoqchiman. Boshqa rivojlangan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham ushbu masalalarga jiddiy e'tibor qaratilishi, uning kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotida mustahkam tamal toshi bo'lishi, tabiiy.

XIROAKI ISHII,
«Ishii Iron Works» kompaniyasi katta direktori,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi bilan tanishib chiqqach, uning uzoqni ko'zlab yuritayotgan siyosati mamlakat sanoati, infratuzilmasi hamda iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy islohotlarni modernizatsiya qilishga qaratilgan kompleks dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim dasturulamal bo'layotganligiga yana bir karra amin bo'ldim.

Yaponiyaning kichik va o'rta biznes vakili sifatida O'zbekistonda tadbirkorlarning huquqlari himoya qilinishi, ularning hukumat hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan munosabatlariga alohida e'tibor qaratdim.

Diqqatga sazovor jihati, Prezident Islom Karimov rahbarligidagi islohotlar dasturida tadbirkorlarning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash nazarda tutilgan.

O'ylaymanki, ushbu sa'y-harakatlar O'zbekiston kabi iqtisodiy taraqqiyotga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka intilayotgan davlatlarga o'rnak va namuna bo'lishi lozim.

BURK MAK KORMAK,
«Ardmore Capital» kompaniyasi prezidenti,
AQSH

O'zbekistonning joriy va kelgusi yillar uchun mo'ljallangan iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Prezident Islom Karimov ma'ruzasi bilan tanishib chiqdim.

Qayd etishim joizki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, haqiqatan ham, jadal sur'atlarda taraqqiy etmoqda. Bu esa aholi bandligi va daromadlari o'sishiga yordam berib, o'z navbatida, turli sohalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning kengayishiga, sog'lom raqobatning rivojlanishiga imkoniyat yaratmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushining 56,7 foizga oshgani tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratilganini ko'rsatmoqda.

Ishonchim komilki, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish tizimining mukammallashtirilishi, ma'muriy to'siqlarning kamaytirilishi, ular faoliyatiga davlat organlari aralashuvining qisqartirilishi hamda soliqlar borasidagi masalalarning soddalashtirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining yuksak taraqqiyotiga xizmat qiladi.

DIPAK NAREYN,
«Innocepta Services d'Consultante»
kompaniyasi direktori,
Hindiston

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasi bilan tanishib chiqqach, hali-hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy inqiroziga qaramay, sizlarning iqtisodiyotingiz barqarorlikni saqlab qolganini alohida ta'kidlamoqchiman.

YIMda tashqi qarzlar kam ekanligi, ya'ni 18,5 foizdan oshmasligi, erishilgan natijalar hamda mamlakat makroiqtisodiyotidagi barqarorlikdan darak beradi.

O'zbekistondagi barqaror iqtisodiy taraqqiyot aholini kuchli ijtimoiy himoyaga olish imkonini bermogda. Misol uchun, «Keksalarni e'zozlash yili» Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun 2 trillion so'm hamda 225 million dollar miqdoridagi mablag'ning yo'naltirilgani meni hayratga soldi. Bu keksa yoshli kishilar mamlakat rahbariyati tomonidan alohida e'tiborda ekanini ochiq-oydin ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlar uchun ulkan investitsion imkoniyatga ega mamlakat ekanligini ta'kidlashim joiz. Yuqori malakali kadrlarga, mo'l xomashyo zaxiralariga boy, ishlab chiqarish va industriya bazasi taraqqiy etgan, qolaversa, Yevropa va Osiyo transportlari kesishadigan yo'l vazifasini o'tovchi geografik jihatdan qulay hududda joylashgan O'zbekistonga xorijiy kompaniyalar tashqi bozorda raqobatbardosh hamda yuqori texnologiyali zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarish uchun sarmoya kiritish juda foydali bo'lgan mamlakat sifatida qaramogda.

SHO OSANO,
«Kokusai Kogyo» kompaniyasining
xalqaro aloqalar departamenti direktori,
Yaponiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasi bizga O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan ishlar haqidagi tasavvurlarimizni yangilashga imkon berdi.

2015-yili mamlakatingizga tashrifim chog'ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy yuksalishlar bilan shaxsan tanishib. O'zbekiston sanoati rang-baranglikda mintaqada yagona ekaniga, ushbu mamlakat yangi turdagi ko'plab mahsulotlar

ishlab chiqarishda yuksak salohiyatga ega ekaniga ishonch hosil qildim.

Shuningdek, Prezident Islom Karimov rahnamoligida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan oqilona kompleks islohotlar sur'atidan hayratga tushdim.

O'ylashimcha, ushbu barcha islohotlarning bosh mezeni tadrijiylikdir. Qayd etish kerakki, mintaqadagi boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq ularni amalga oshirishda, xalqning mazkur islohotlarga nechog'lik tayyorligi, zarur manbalarning mavjudligi kabi barcha jihatlar e'tiborga olinmoqda.

MUHAMMAD ZUBAIR,
«Hasnur General Trading» kompaniyasi direktori,
BAA

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasini diqqat bilan o'rganib chiqib, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarning naqadar zarur va samarali bo'layotganiga yana bir karra ishonch hosil qildim. Iqtisodiy rivojlanishning sur'ati, sanoat mahsulotlarining rang-barangligi hamda yuqori malakali kadrlarning mavjudligi O'zbekistonning istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlab, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentning mazmunan boy ma'ruzasida 2030-yilgacha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalar va yo'nalishlar alohida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, o'sha davrgacha YIM hajmini ikki baravargacha oshirish, shuningdek, bunda sanoatning ulushini 40 foizgacha yetkazish rejalashtirilgani e'tiborimni tortdi.

Ishonchim komilki, iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish sur'ati, sanoat korxonalarining modernizatsiya qilinishi, barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, yaqin kelajakda maqsad qilib qo'yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshishiga imkon beradi.

YUJIRO SUTSUI,
«Swing Corporation» kompaniyasi xalqaro
marketing departamenti direktori o'rinbosari,
Yaponiya

Prezident Islom Karimov ma'ruzasini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim.

Meni hayratga solgani, hali-hanuz davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay, dunyoning boshqa ko'plab mamlakatlaridan farqli ravishda O'zbekistonda budjet sarf-xarajatlaridagi, pul-kredit hamda ichki siyosatdagi qat'iy intizom tufayli makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O'zbekistonni iqtisodiy rivojlantirish hamda modernizatsiyalash dasturi sanoat, infratuzilma, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha kabi barcha muhim tarmoqlarni qamrab olgan.

Ma'ruzada mamlakatda 2030-yilga qadar muhim vazifalardan biri sifatida YIMda sanoat ulushini 40 foizgacha oshirish nazarda tutilgani e'tiborga molik. Aminmizki, mazkur dasturdagi barcha vazifalarning amalga oshirilishi O'zbekistonning kelgusidagi barqaror taraqqiyotiga hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

GASTONE NARDONI,
«GS AIR» kompaniyasi direktori,
Italiya

Prezident Islom Karimov tomonidan e'lon qilingan iqtisodiy dastur xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda uning me'yoriy-huquqiy bazasini mustahkamlash O'zbekistonning davlat siyosatida muhim vazifalardan biri ekanligidan guvohlik beradi. Uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan ushbu sa'y-harakatlar esa, aminmanki, O'zbekistonning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga mislsiz foyda keltiradi.

O'zbekiston xorijiy sarmoyalarni jalb etish borasida juda samarali ishlarni amalga oshirayotgani hamda bu Jahon banki-ning «Biznes yuritish» loyihasi hisobotida ijobiy baholangani e'tiborimni tortdi. Ushbu xalqaro e'tirof respublikada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar hamda ishonchli va to'g'ri yo'lga qo'yilgan investitsiyaviy muhitdan darak beradi.

JANLUKA ANGELERI,
«Flowserve Corporation» katta menejeri,
Italiya

O'zbekistonning 2015-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ayniqsa, Prezident Islom Karimov taklifi bilan ishlab chiqilgan, puxta va chuqur o'ylangan, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi «yo'l xaritasi» menda katta taassurot qoldirdi.

Ma'ruzada biznes yuritish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan muhim, jiddiy ishlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Buning isbotini esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi reyting va indekslarda tutayotgan o'rnida ham ko'rib turibmiz. Biznes-sektor vakili hisoblanmish kompaniyamiz uchun O'zbekistonda loyihalarni amalga oshirishda ularni modernizatsiyalash hamda texnik va texnologik yangilash maqsadida xorij sarmoyasini to'g'ridan to'g'ri jalb etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlari juda qiziqarli. Xususan, bizning ixtisosligimiz hisoblangan neft-kimyo hamda energetika tarmog'i bo'yicha yirik investitsion loyihalarning, jumladan, Toshkent IES modernizatsiyasi, Qo'ng'iro't soda zavodi faoliyatini yanada kengaytirish, Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish kabi ishlarning amalga oshirilayotgani e'tiborimizni tortdi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan kelgusida ta'lim tizimiga yo'naltiriladigan mablag' YIMga nisbatan 10–12 foizini tashkil etishi vazifasi qo'yilgani, boshqa mamlakatlarga

nisbatan olib qaraganda, juda ulkan qadamdir. Zamonaviy ta'lim tizimini barpo etishda Toshkentdagi Turin politexnika universiteti ham o'z hissasini qo'shayotgani juda quvonarli hol. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur oliy o'quv yurti bitiruvchilariga sanoatning innovatsion yo'nalishlarida talab juda kuchli ekan.

SHOJI MARUYAMA,
«Kurita Marketing and Management Corporation»
kompaniyasining biznesni rejalashtirish va
rivojlantirish bo'yicha bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi O'zbekistondagi mavjud holat bilan batafsil tanishish imkonini berdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ijtimoiy hayotda ham, iqtisodiy sohada ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimov rahbarligidagi chuqur o'ylangan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining kelgusidagi taraqqiyotini ta'minlab, xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini mustahkamlaydi.

Puxta amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatingizda xorijiy sarmoyadorlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi uchun muhim omil bo'ladigan qulay investitsion muhit yaratildi.

Shu bois men ham yapon kompaniyalari O'zbekistonda raqobatbardosh, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishiga umid qilib qolaman.

SELIN RAYNAL,
«Yon-Ka» kompaniyasi direktori,
Fransiya

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik va moliyaviy inqiroz kuzatilayotgan bir paytda, O'zbekistondagi iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlari tahsinga sazovor.

O'zbek iqtisodiyoti o'sish sur'atining jahon iqtisodiyot ko'rsatkichidan 2,5 martaga ortib borayotgani e'tiborga molik.

Taraqqiyotning uzoq yillar davomida yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga xizmat qiluvchi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesga erkinlik va preferensiyalar berish kabi masalalar Prezident Islom Karimovning alohida e'tiborida ekani ham diqqatimni tortdi. Sarmoyalar tuzilmasi bilan tanishib, shuni aytishim mumkinki, O'zbekistonda ishlab chiqarish sohasi, infratuzilma hamda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida mukammal investitsiyaviy munosabatlar o'rnatilgan.

Mamlakatda yaxshi boshqaruvchilarni saralab olish hamda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida korporativ boshqaruv tizimining joriy etilishi yuksak bahoga sazovor. 60 yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan kompaniyamiz ushbu tizim har qanday tashkilotning gullab-yashnashi va muvaffaqiyat qozonishida eng muhim va eng to'g'ri yo'l ekanini o'z tarixi orqali yaxshi biladi.

VINOD DAMODARAN,
«Precision» kompaniyasi boshqaruvchi direktori,
BAA

Prezident Islom Karimovning mazmunan boy ma'ruzasi bilan tanishish imkoniga ega bo'lganimdan juda minnatdorman.

Shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni tubdan yangilab, mamlakatning barqaror taraqqiyotga erishish yo'lidagi izchilligini ta'minlamoqda.

Ayniqsa, savdo sohasini liberallashtirish jarayonlarining kuchayayotgani O'zbekistonning jahon xo'jalik aloqalari tizimidagi o'rni va nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda korporativ boshqaruv tizimiga o'tilishi bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilayotganini quvonch

nisbatan olib qaraganda, juda ulkan qadamdir. Zamonaviy ta'lim tizimini barpo etishda Toshkentdagi Turin politexnika universiteti ham o'z hissasini qo'shayotgani juda quvonarli hol. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur oliy o'quv yurti bitiruvchilariga sanoatning innovatsion yo'nalishlarida talab juda kuchli ekan.

SHOJI MARUYAMA,
«Kurita Marketing and Management Corporation»
kompaniyasining biznesni rejalashtirish va
rivojlantirish bo'yicha bosh menejeri,
Yaponiya

Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi O'zbekistondagi mavjud holat bilan batafsil tanishish imkonini berdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ijtimoiy hayotda ham, iqtisodiy sohada ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Ishonchim komilki, Prezident Islom Karimov rahbarligidagi chuqur o'ylangan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining kelgusidagi taraqqiyotini ta'minlab, xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini mustahkamlaydi.

Puxta amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli mamlakatingizda xorijiy sarmoyadorlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi uchun muhim omil bo'ladigan qulay investitsion muhit yaratildi.

Shu bois men ham yapon kompaniyalari O'zbekistonda raqobatbardosh, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishiga umid qilib qolaman.

SELIN RAYNAL,
«Yon-Ka» kompaniyasi direktori,
Fransiya

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik va moliyaviy inqiroz kuzatilayotgan bir paytda, O'zbekistondagi iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlari tahsinga sazovor.

O'zbek iqtisodiyoti o'sish sur'atining jahon iqtisodiyot ko'rsatkichidan 2,5 martaga ortib borayotgani e'tiborga molik.

Taraqqiyotning uzoq yillar davomida yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga xizmat qiluvchi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesga erkinlik va preferensiyalar berish kabi masalalar Prezident Islom Karimovning alohida e'tiborida ekani ham diqqatimni tortdi. Sarmoyalar tuzilmasi bilan tanishib, shuni aytishim mumkinki, O'zbekistonda ishlab chiqarish sohasi, infratuzilma hamda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida mukammal investitsiyaviy munosabatlar o'rnatilgan.

Mamlakatda yaxshi boshqaruvchilarni saralab olish hamda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida korporativ boshqaruv tizimining joriy etilishi yuksak bahoga sazovor. 60 yildan ortiq vaqtdan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan kompaniyamiz ushbu tizim har qanday tashkilotning gullab-yashnashi va muvaffaqiyat qozonishida eng muhim va eng to'g'ri yo'l ekanini o'z tarixi orqali yaxshi biladi.

VINOD DAMODARAN,
«Precision» kompaniyasi boshqaruvchi direktori,
BAA

Prezident Islom Karimovning mazmunan boy ma'ruzasi bilan tanishish imkoniga ega bo'lganimdan juda minnatdorman.

Shuni ta'kidlashni istardimki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni tubdan yangilab, mamlakatning barqaror taraqqiyotga erishish yo'lidagi izchilligini ta'minlamoqda.

Ayniqsa, savdo sohasini liberallashtirish jarayonlarining kuchayayotgani O'zbekistonning jahon xo'jalik aloqalari tizimidagi o'rni va nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda korporativ boshqaruv tizimiga o'tilishi bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilayotganini quvonch

bilan qayd etmoqchiman. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda keng ko'lamli yangidan yangi loyihalarning amalga oshirilishiga xizmat qilib, mamlakatning investitsiyaviy imkoniyatlarini yanada yuksaltirishiga ishonchim komil.

ALEKSANDRA PINO,
«Geka Telecom» kompaniyasi menejeri,
Fransiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ma'ruzasini katta qiziqish bilan o'rganib chiqdim.

Fransiyadan tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi, dunyoning turli mamlakatlarida telekommunikatsion sohaga oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi kompaniya sifatida biz O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya tarmog'ida shiddatli rivojlanishga guvoh bo'ldik.

Sohadagi sifatli taraqqiyot hayotiy faoliyatning barcha jabhalari – ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish sohasida, korporativ hamda davlat boshqaruvi tizimining yaxshilanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda «elektron hukumat» tizimining joriy etilishi, nufuzli Inha universiteti filialining ochilishi hamda iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarning keng jalb etilishi, faoliyatning barcha yo'nalishlarini kuchaytirib, keng ko'lamli taraqqiyotga yo'l ochib beradi.

Axborotlashtirish va «elektron hukumat» sohasida, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli loyihalarni hisobga olgan holda, ishonchimiz komilki, O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot sur'ati hali uzoq yillar saqlanib qoladi.

MUNDARIJA

Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir 3

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasiga chet el ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillari va xorijiy ekspertlarning munosabat va fikr-mulohazalari 47

Rasmiy nashr

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ISLOM KARIMOVNING MAMLAKATIMIZNI
2015-YILDA IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH YAKUNLARI VA 2016-YILGA
MO'LAJALLANGAN IQTISODIY DASTURNING ENG
MUHIM USTUVOR YO'NALISHLARIGA BAG'ISHLANGAN
VAZIRLAR MAHKAMASINING KENGAYTIRILGAN
MAJLISIDAGI MA'RUZASIGA CHET EL
IJTIMOIY-SIYOSIY DOIRALAR VAKILLARI
VA XORIJIY EKSPERTLARNING MUNOSABAT
VA FIKR-MULOHAZALARI**

Nashr uchun mas'ul *I. Ahmedov*

Rassom-dizayner *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G. Yeralieva*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 14.08.2009.
Bosishga 2016-yil 25-martda ruxsat etildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
Ofset qog'oz. «Times» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,0. Nashr tabog'i 7,96. Adadi 23476 nusxa.
Buyurtma № 16-172.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi. 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

K 25 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasiga chet el ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillari va xorijiy ekspertlarning munosabat va fikr-mulohazalari / – Toshkent: «O'zbekiston», 2016. – 128 b

ISBN 978-9943-28-616-0

UO•K: 323(575.1)

KBK 66.3(50•)